

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
TURIZM FAKULTETI**

**TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI**

Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy obidalar haqida.

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Bajardi:** 5140800 – Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta`lim yo`nalishi 4 kurs talabasi Jabborova Feruza\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** texnika fanlari nomzodi, dotsent M.Badiev\_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi «\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2019 yil

**BUXORO – 2019**

# REJA

## **I bob O'rta Osiyo me'morchilikligi tarixi.**

1-§ O'rta Osiyo fan va madaniyatning qayta uyg'onishi davri me'morchiligining rivojlanish omillari. (IX asrdan XIII asrning 20-yillarigacha)

§ 2. Shoh – Axsiy tarixiy obidasi haqida.

## **II - bob**

§ 1. Mavlono Sharif tarixiy obidasi haqida..

§ 2. Buxorodagi masjidi jome.

## **Xulosa**

## **Adabiyotlar ro'yxati**

## **Ilova**

## MUNDARIJA

**Kirish**..... 4

### **I – bob.**

§ 1. O’rta Osiyo fan va madaniyatning qayta uyg’onishi davri me’morchiligining rivojlanish omillari. (IX asrdan XIII asrning 20-yillarigacha) ..... 9

§ 2. Shoh – Axsiy tarixiy obidasi haqida. .... 18

### **II – bob.**

§ 1. Mavlono Sharif tarixiy obidasi haqida ..... 35

§2. Buxorodagi masjidi jome . ....49

**Xulosa va takliflar**.....64

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**..... 66

**Ilova**

## KIRISH

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vasifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'lardi. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf -odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tassavur etib bo'lmaydi bu borada, tabiiyki ma'naviy meros madaniy boylikdan ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat sharq balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar olimu-ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yettishib chiqqani umumbashariy sivilizatsiya va ma'daniyatning uzviy qismida aylanib kelgan dunyoviy va diniy ilimlarning, ayniqsa, islom dinni bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarimizning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. **Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali hanuz o'zining ko'rku tarovatini saqlab kelayotgan osori antiqalarimizning qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morlik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi.**<sup>1</sup>

Mamlakatimizda hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. (Islom Karimov)

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekistonda oliy talim tizimini takomillashtirish asosi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari hisoblanadi. Ular yuksak umumiy va kasbiy

---

<sup>1</sup> "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" I.A.Karimov. Toshkent. "Manaviyat".- 2009

ma'daniyatga ega bo'lgan va ijodiy faol, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shaklantirishga yo'naltirilgan. Oliy texnik ta'limni takomillashtirish konsepsiyasida takidlanganidek, milliy dasturing muhim vazifalaridan biri **"...mamlakat sotsial – iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat talablari, fan, texnik ma'daniyatning yutuqlarida kelib chiqadigan kadrlar tayyorlash mazmuni struksiyasini qayta tashkil qilishdan iboratdir"**.<sup>2</sup>

Harqanday jamiyatda bo'lganidek, Respublikamiz taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oldigan malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasp etadi. Zero jamiyat taraqqiyotida mutxasis kadrlar omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqtdi. Mutaxasis Kadrlar tayorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'ngi yillarda keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Jumladan, tayorlanayotgan mutaxasis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi kabi xislatlarini alohida etibor berilmoqda. Kadrlar tayorlash milliy dasturida ta'kidlanganikek o'qishni mustaqil bilim olishni individuallashtirish hanmda distension ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarni ishlab chiqish o'zlashtirish"<sup>3</sup> talab etiladi.

Binobarin o'ly ta'lim tizimida bo'lajak pedagog grafikaviy tayorgarligini mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish takomillashtirish tadqiqotimizning muamosini belgilab va mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Bu yechimni kutayotgan muammolarni hisobga olgan fan va texnika tarqiyotining hozirgi rivoji zamonaviy ishlab chiqarish darajasi, oliy texnik ta'lim tizimida me'mor mutaxassislarni tayorlashni kamchiliklardan kelib chiib, mustaqil ta'limni faollashtirish asosida amalliy tayorgarligini takomillashtirish zarur.

---

<sup>2</sup> Oliy texnika tizimini takomillashtirish Konsepsiyasi /Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami "sharq.- Toshkent.2005.139bet.

<sup>3</sup> "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" / Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent,1997. B.31-61.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi .** Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan boy tarixga ega bo'lib, uni Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent Shahrisabz kabi ko'pgina shaharlarning yodgorligida ko'rish mumkin ushbu yodgorliklarning rang- barangligi yuksak badiiy savyasi falsafiy va ma'naviy mazmuni bilan birga bir necha asrlar davomida butun dunyo ahlini o'ziga rom qilib kelmoqda.

Tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlar ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil etishdan shunday xulosaga keldiki, mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatlar O'zbekiston Respublikasi va "Mustaqil Davlatlar Hamdo'sligi" miqyosida so'nggi yillarda bir qator olimlar tomonidan tadqiq e'tilgan.

**Ishning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi,** tadqiqot "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida ta'lim tizimi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni isloh qilish rivojlantirish muammolari, davlat ilmiy-texnik dasturining "Yosh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi:** oliy ta'lim tizimida tarixiy obidalardan qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda foydalanish, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash va mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish asosida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari:**

- 1.O'rta osiyo hududidagi tarixiy yodgorliklarni tadqiq qilish;
- 2.Buxoro me'morchiligini o'rganish, Shoh – Axiy tarixiy obidasi haqida
3. Mavlono Sharif tarixiy obidasi haqida. Fayzobod Xonakosining arxitektura obidasi va atrof muhitning tasnifi
4. Markaziy osiyo me'morchilik obidalarini qurilish chizmachiligida aks e'tirilishi

**Tadqiqot ob’ekti** oliy ta’lim tizimida “Ta’sviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavr ta’lim yo’nalishi talabalariga ta’lim berish tizimi.

**Tadqiqot predmeti** talabalarning qurilish chizmachiligi o’qitish tizimida ta’lim mazmuni va texnologiyasi.

**Tadqiqotning ilmiy farazi.** Oliy ta’lim tizimida qurilish chizmachiligi ta’lim jarayonining sifatini oshirishi mumkin, agar:

-talabalarning o’quv amaliy faoliyati mazmuni zamonaviy ishlab chiqarishda me’moriy obidalar ijodiy-ish faoliyati mazmuni asosida qurilsa;

**Tadqiqot metodlari:**

*kuzatuv* - oliy ta’lim jarayonida talabalarni amaliy tayyorgarlik va mustaqil ta’lim olish faoliyatining holatini o’rganishda;

*-nazariy tahlil-* zamonaviy ishlab chiqarishda talabalarning ijodiy-ish faoliyatini o’rganish, ilmiy tadqiqot muammosi bo’yicha umum pedagogik psixologik adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilishda qo’laniladi;

*-so’rovnoma va test* o’tkazish talabalarning mustaqil ta’lim olishga munosabati, uni tashkil e’tishning mavjud holati hamda o’quv ishi natijalari va ta’lim oluvchilarning amaliy faoliyati o’rganishda foydalaniladi.

Tadqiqotning metodologik asosi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Oliy texnik ta’limni takomillashtirish Konseptsiyasi” tashkil e’tadi. Shuningdek psixologiya va pedagogikaning shaxs ijodkorlik faoliyatining mohiyati, shakllanishi va rivojlanish haqidagi qoidalar va oliy ta’lim pedagogikasining zamonaviy nazariyasi tashkil e’tadi.

**Ilmiy yangiligi:**

1.O’rta osiyo hududidagi tarixiy yodgorliklarni tadqiq qilish;

2.Buxoro me’morchiligini o’rganish,

3. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy obidalar me'morchilik obidalarini aks e'tirilishi

## **I bob O'rta Osiyo me'morchilikligi tarixi.**

### **1-§ O'rta Osiyo fan va madaniyatning qayta uyg'onishi davri me'morchiligining rivojlanish omillari. (IX asrdan XIII asrning 20-yillarigacha)**

Arab xalifaligi qo'shinlari Xurosonni bosib olib Balxga yetib kelgach u yerda Sug'diyona va umuman O'rta Osiyo boyliklari haqidagi ma'lumotlarni eshitib Amudaryo vohasiga keladilar. 670-yildan boshlab ular Movarounahrga bir necha marta yurishlar uyushtirib, dastlab janubda joylashgan va katta madaniy zaminda savdo markazi hisoblanmish Paykent shahrini, so'ng butun Buxoro vohasini va keyinchalik O'rta Osiyoning kattagina qismini bosib oladilar.

Arablar o'zlari bosib olgan shaharlarni talon-toroj etib, ko'p vayrongarchiliklar keltirdilar. Tarixchilardan Narshaxiy, Tabariy va boshqalarning ma'lumotlariga qaraganda ko'plab oltin, kumush va boshqa qimmatbaho xazinalarni talab ketadilar. Jumladan, ular talab olib ketgan boylikning faqatgina bir qismini tashkil etuvchi Paykent podshohi Xotunning 20 ming dirhamlik oltin ziynati, shu shahar butxonasidagi 40 ming dirhamlik oltindan yasalgan sanam haykali va uning ikki ko'ziga qadalgan kattaligi kabutar tuxumidek keladigan ikki inju, Samarqanddagi hozirgi Hazrat Xizir masjidi o'rnida joylashgan ibodatxonaning sof oltindan yasalgan mozaykallarini eritib, o'yma tilloga aylantirib xalifalik markazi — Bog'dodga olib ketilganligini eslatib o'tsak, bu bosqinchilik xususida ma'lum darajada tassavvur paydo bo'lar, deb o'ylaymiz.

Arablar o'zlari istilo qilgan hududlardagi aholi ongiga Islom dinini tezroq singdirish maqsadida bo'yin tovlagan odamlarni, islomni inkor etgan taraqiyparvarlarni o'ldirib, otashparastlik (zardushtiy), budda dini, nasroniylik va boshqa diniy mazhablarga xos imoratlarni buzib tashlaydilar, kitoblarni yoqib



yuboradilar. Jumladan, avvalgi bobda eslatib o'tilganidek, Varaxsha, Afrosiyob, Panjakent va boshqa shaharlardagi devoriy rasmlarga har xil nopok narsalarni chaplab, suratlarni buzib, ko'z va bosh tasvirlarini qirib, unga "Olloh", "Muxammad" kalimalarini o'yib yozganliklari buning yana bir isbotidir.

Shundan so'ng mahalliy xalq to yangi dinni butkul qabul etib, madaniy hayotni yana qaytadan tiklab, obod shahar va qishloqlarni bunyod etgunicha ko'plab o'n yilliklar kechishiga to'g'ri keldi. Arab bosqinchilariga qarshi ketma-ket hali Buxoroda, hali Samarqanda, Xorazmda, Naxshabu (Qarshi) va boshqa ko'plab shaharlarda ketma-ket qo'zg'olonlar bo'lib turdi. Bularning ichida eng katta noroziliklar Muqanna va keyinroq Rofe ibn Lays boshchiligidagi xalq harakatlari hisoblanadi. Rofe ibn Lays qo'zg'oloni Movarounnahr hayotida tub o'zgarish sodir bo'lishiga olib keldi. Chunonchi ketma-ket ko'tarilib turgan norozilik qo'zg'olonlarini arablar o'zining kuchi bilan bartaraf etolmasliklarini Xalifa ar-Rashidning o'gli Xalifa Ma'mun tushunib etadi. U Rofe ibn Lays qo'zg'olonini bostirish uchun Balx yaqinidan chiqqan va zardushtiylik dinining tarafdorlari bo'lgan somoniylarga murojaat qiladi. Rofe tez orada Somon bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Qizig'i shundaki, Somon xalifalikka madad beradiyu o'zi islomni qabul qilmaydi. Ammo o'g'illari va nevaralariga islom dinini qabul ettiradi. SHunday qilib IX asrning birinchi choragida O'rta Osiyo somoniylar amirligi tasarrufiga o'tadi va bu davrda madaniy taraqqiyot asta-sekinlik bilan yuksala borib markazlashgan davlat tuzilishiga sharoit yuzaga kela boshlaydi.

Mana shu davrdan boshlab aytarlik 400 yil mobaynida (IX asr boshidan to XIII asr boshigacha), ya'ni mo'gillar istilosi davrigacha, garchi ichki nizolar tez-tez yuz berib turgan bo'lsa ham, Movarounnahrda fan va madaniyatning yuksalish sur'ati o'sib dunyo fani taraqqiyotiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan O'rta Osiyo bu davr ichida butun dunyo ilmiy xazinasiga algebra fanining asoschilaridan biri hisoblanmish buyuk matematik, astronom, jug'rofiyachi Muxammad Muso al-Xorazmiy (790—847-yillar), tabiatshunos va jamiyatshunos olim Abu Bakr al-Roziy (864—925 yillar), SHarq falsafasi

asoschilaridan Abu Nasr al-Farobiy (872—950 yillar), mashhur qomusiy olimlar Abu Ali ibn Sino (980—1037 yillar) va Abu Rayhon Beruniy (973—1048 yillar) hamda boshqa bir qator olimlar, shoirlar va fozillarni berdi. SHuni hisobga olib olmon olimi Adam Mets bu davrni O`rta Osiyoning Uyg`onish davri deb nomlagan . Arab istilosidan keyingi me`morchilik va shahar qurilishining dastlabki ravnaqi Ismoil Somoniy (847—906-yillar) nomi bilan bog`langan. Uning davrida poytaxt shahar—Buxoro atrofida Sahroyi Kabirdan Tyan-SHangacha, Basra ko`rfazidan Hindistongacha va Iroqdagi xalifalik markazigacha buyuk markazlashgan davlat yuzaga keldi. Uning qadimilari Marv, Nishopur, Roy, Omul, Qazvin, Isfahon, SHeroz, Hirot, Balx kabi shaharlarda o`z hukmronliklarini yuritardilar.<sup>4</sup>

O`rta Osiyoda Islom nafaqat mustahkamlanibgina qolmay, balki ilmiy jihatdan ham taraqqiy eta boshladi. Yangi binolar turlari vujudga keldi. Jumladan masjidlar, minoralar, maqbaralar, Madrasa, karvon saroy, sardoba, xonaqoh, dorus-shifo (kasalxona) kabi yangi turdagi binolar, turarjoylar, hammomlar shu kabi boshqa binolar shahar va qishloqlarda hamda boshqa aholi punktlari oralig`ida ko`plab qurildi.

IX asr boshlarida avvalgidek asosan xom g`isht, paxsa ishlatilgan bo`lsa keyinchalik pishiq g`isht ma`muriy va jamoa binolari qurilishida asosiy material bo`lib qoldi. Turarjoy binolari qurilishida esa sinchli konstruktsiya keng tarzqaldi. Pardoiz ishlarida somonli loysuvoq qatorida ganchning har xil turlari ishlatilgan. Keyinroq sirlanmagan koshin va sopol plitkalar, XII asrga kelib qisman sirlangan koshin va sirlangan yaxlit o`ymakorlikda pishirilgan loy bo`laklari — parchin ishlatish usuli kashf etildi.

Umuman olganda IX—X asrlarda xom g`isht va paxsadan qurilgan imoratlarning turli holatda saqlanib qolgan xarobalari Mari atroflari, Qadimgi Xorazm yerlarida uchraydi. Lekin pishiq g`ishtdan ishlangan dastlabki imoratlar qatorida Buxoroda saqlanib qolgan Somoniylar maqbarasini misol keltirish

---

<sup>4</sup>M.Q.Axmedov “O`rta Osiyo me`morchiligi tarixi” T.: “O`zbekiston” nashiryoti.

mumkin. Bu inshoot Ismoil Somoniy davrida (873—907 yillar) qurilgan deb hisoblanadi.

### **BUXORO ME'MORCHILIGI**

Agar Buxoro shahrining me'moriy yodgorliklarini o'rganmoqchi bo'lsangiz, ishni Ismoil Somoniy maqbarasi (IX-XII asrlar) bilan tanishishdan boshlagan ma'qul. Ushbu maqbara Buxoro Arkinging g'arb tomonida, undan uzoq bo'lmagan yerda joylashgan.

1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati"ga kiritilgan.



#### **Ismoil Somoniy maqbarasi.**


O'rta Osiyoda Somoniylar davri me'morchiligining nodir namunalaridan biri bo'lgan bu tarixiy obida Ismoil Somoniy tomonidan bunyod etilgan.

Ismoil Somoniy shaxsi haqida gapiradigan bo'lsak, u Buxoroda Somoniylar davlatiga asos solgan yirik siyosiy arbob hisoblanadi. Ismoil Somoniy 848-yil Buxoro shahrida tug'ilgan, 874-yilda somoniylarning Buxorodagi noibi, 888-yildan esa butun Movarounnahrda hokim bo'lgan. Ismoil Somoniy markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib borib, turli yerlardan ulamolar, adiblar, usta va hunarmandlarni Buxoroga to'plagan. Madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Bag'dod xalifalaridan ibrat olib, o'ziga ulkan maqbara qurdirgan. 893-yilda Tarozga yurish qilib shimoliy chegaralarni mustahkamlagan. 900-yilda Movarounnahr va Xurosonni birlashtirgan.

Me'moriy obida bunyod etilgan davrda O'rta Osiyoda arab xalifaligidan mustaqil mahalliy davlatlar tashkil topa boshladi. Xurosonda Tohiriylar, Movarounnahrda esa Somoniylar davlati vujudga keldi. Mahalliy davlatlar yagona markaz atrofida birlashtirilib, ilm-fan yuksalgan. 874-yilda Ismoil Buxoro noibi etib tayinlandi. Bu paytda Movarounnahrda akasi Nasr hukmronlik qilayotgan edi. Nasr va Ismoil o'rtasidagi munosabatlar 888-yilda buziladi va bu urushga olib keladi. Urushda g'alabaga erishgan Ismoil butun Movarounnahrda hokim bo'lib oladi. 893-yilda u Tarozga yurish qilib Shimoliy chegaralarni mustahkamlagan.

Ismoil Somoniy maqbarasi o'rta asrlarning rivojlangan davrida (IX-X asr), 864-868-yillar oralig'ida, hozirgi Buxoroning eski shahar qismida qurilgan.

Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri uch pog'onali (to'rtlik – to'rt devor, sakkizlik – devordan tomga o'tish qismi va gumbaz – tom ko'rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan.



Uning qurilishida pishgan g'isht, tosh va yog'ochdan foydalanilgan. Maqbaraning dizayniga to'xtaladigan bo'lsak, jimjima g'ishtin bezaklari chiviqli to'siq yoki qamish, bo'ya to'qimasini eslatadi. Devor qalinligi – 1,8 m., tarhi – tashqarisi 10,80x10,70 m., ichkarisi 7,20x7,20 m. Usti gumbaz bilan qoplangan. To'rt burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba o'rnatilgan. Devor tepasida kungirasimon darcha (40 ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g'ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda g'ishtdan chorsu tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bog'liq bo'lib, uslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag'alidagi ustma-ust ravoqchalar – ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini

tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqtida (1927) xona sahnida 2 yog‘och sag‘ana borligi aniqlangan. Ismoil Somoniy maqbarasi 4 tomoni bir xil chordara shaklida, uning tuzilishida qadimiy sug‘d me‘morchiligining an‘analari saqlanib qolgan buyuk me‘moriy asar.

Ismoil Somoniy maqbarasi jahon me‘morchilik va binokorlik maktablarining noyob asari hisoblanadi. Tengri yo‘q bu arxitekturaviy yodgorlikni arxitektorlar va binokorlar faxr bilan tilga oladilar, tarixchilar yaratilishini o‘rganadilar, san‘at ahli esa uning tasvirlarini turli xil buyumlarda sevib aks ettiradilar.

Ismoil Somoniy maqbarasi IX asrda Buxoroda me‘morchilik san‘ati, binokorlik texnikasining naqadar yuksalganligini va rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ana o‘sha davrdan boshlab binokorlikda yuqori sifatli pishgan g‘isht, albastrli qorishmalar ishlatilgan.

Ushbu nodir obidani tiklashgacha bo‘lgan davrda Buxoroda matematik bilimlar, xususan geometriya juda yaxshi rivojlangan.

Professor M.Bulatov tomonidan uni barpo etishda qo‘llanilgan handasa qoidalari va qonuniyatlarini o‘rganish asosida doktorlik dissertatsiyasi yozilganligi ham bejiz emas. Hali inshootning o‘rganilmagan qanchadan-qancha qirralari, qonuniyatlari, qoidalari, qurilish usullari bor.

Yuksak professional darajada barpo etilgan bu tarixiy yodgorlik o‘sha davrdagi eng tajribali quruvchilarni, eng qobiliyatli me‘morlarni loyihalash va qurilish usullari bilan qurollantirganligi, ularning bilim va malakalarini nechog‘lik oshirganligi sir emas.

Ismoil Somoniy maqbarasi markazlashma inshoot bo‘lib, uning asosiy hajmini to‘rt devori ko‘tarilgan sari bilinar-bilinmas yengil qiyshaytirilgan kub va fazoviy gumbaz tashkil qiladi. Devor kvadratlari bilan gumbazni tutashtiruvchi konstruksiya inshootning o‘ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Maqbaraning barcha fasadlari bir xilda bajarilgan. Devorlar ichkari va tashqi tomondan bezakli qilib yuqori sifatli pishgan g‘ishtdan bejirim terilgan, qurilishda o‘ymakorlik usullaridan

ham foydalanilgan.

Dekorativ g'isht terimi inshootga yengillik ifodasini baxsh etgan. Kirish eshik proyomlari strelka shaklidagi arka ko'rinishida bajarilgan. Bu yechimlar, ayniqsa, strelkali arka va gumbazli tom konstruksiyalari, keyingi davrda nafaqat Buxoro me'morchiligida, balki butun Markaziy Osiyo me'morchiligida ham ko'p ishlatilgan.

Zaruriyati tug'ilgan gumbazli yopmalarni ishlatishning ijobiy tomonlari ko'pdir. Ulardan biri shundan iboratki, o'sha davrda uzoq vaqtga chidaydigan konstruksiyalarning egilish qismlarida ham yaxshi ishlaydigan temirbetonga o'xshagan buyum va konstruksiyalar deyarli mavjud bo'lmagan. Shu sababli ham tom yopma shunday ko'rinishda bajarilganki, u shakl bo'yicha bunyod etilgan har qanday konstruksiya asosan siqilishga ishlagan. Natijada inshootlarning proyomlari ko'rsatkichli arka shaklida, tom yopmalari esa gumbaz shaklida g'isht terimidan mustahkam qilib tiklangan.

Boshqa tomondan, quruq va issiq iqlimli, quyoshning katta radiatsiyasi yerga tushadigan sharoitda gumbazli yechim samaralidir. Quyosh nuri gumbazli tomning faqat qaysidir bir bo'lakchasiga tik tushib, o'sha qisminigina ko'p isitadi; shu vaqtda gumbazli yopmaning qolgan qismlariga radiatsiya tik tushmaydi va tom ko'p isimaydi. Gumbazli yopmaning uchinchi jihati shundan iboratki, bunday sirdan issiqlik tez ketib, tom tezda soviydi. Shamol esganda esa, bu jarayon yana ham intensivlashadi.

Ismoil Somoniy arxitekturaviy yodgorligi XI asrdan ortiq vaqt ichida yaxshi holda saqlanib qolgan. U jahon arxitekturasining takomillashgan asari, «Sharqning me'moriy durdonasi» degan nomlar bilan ham ataladi. Yodgorlik arablargacha bo'lgan davr an'anasi asosida bajarilgan bo'lsa-da, u nafaqat Buxoroda, balki Markaziy Osiyo me'morchiligida ham yangi stil, yangi shakl va yangi yechimlarni yaratishning keyingi taraqqiyotini aniqlab bergan.

Bino gumbazining o'rtasida yorug'lik tushishi va issiq havoning chiqib ketishi uchun gumbazcha bilan yopilgan baraban konstruksiya o'rnatilgan bo'lib, uning yon tomonlariga arkali proyomlar qo'yilgan. Inshoot devorlarining tashqi

burchaklari naqshli ustunlardan, devorlar va kirish eshiklarining arkalari esa bezakli, jilo berilgan g'ishtlardan mohirona ishlangan. Gumbazli bino intereri bilan chuqurroq tanishilsa, uni yaratish san'ati oldingi vaqtlardan boshlanganligiga va an'anaga aylanganligiga ishonch hosil qilinadi. Yodgorlikning arxitekturaviy tahlili uni Eron, Mesopotamiya me'morchiligi bilan genetik bog'liqlikda ekanligidan guvohlik beradi.

Bu inshootda bir necha tektonik yechimlar bir butunlikda, yaxlitlikda ishlab chiqilganligini inkor etib bo'lmaydi. Turar-joy va madaniy arxitektura asoslaridan ishonch bilan foydalanganlik ushbu inshoot misolida Buxoro me'morchilik maktabining o'sha davrda yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatib turibdi.

Demak, Ismoil Somoniy maqbarasining hajm – samoviy va konstruktiv strukturasi undan keyin qurilgan gumbazli binolarning rivojlanishini aniqlab bergan. Me'moriy naqshlar, chiroyli jimjimador bezak elementlari, nihoyatda go'zal va bejirim badiiy ifodalar o'sha davrda g'isht terish san'atining gullab-yashnaganligidan dalolat beradi. Maqbaradagi g'ishtlarning yuksak badiiy did bilan terilganligi uning jahon me'morchiligi ajoyib durdonalari silsilasidan o'rin olishiga asos yaratgan.

Maqbara gumbazsimon, Movarounnahr va Xuroson me'morchiligining o'ziga xos "Chor" uslubida qurilgan. Me'moriy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, u O'rta Osiyo arxitektura va san'at tarixidagi dastlabki maqbaralardan biridir. Ismoil Somoniy maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib asosida yaratilganligi uning boshqa maqbaralardan farqlantiruvchi xususiyatidir. Maqbara o'z davrida somoniy amirlari dafn etilgan daxma hisoblangan.

Hozirgi kunda me'moriy inshoot atroflari bog'ga aylantirilgan. U arxiologik qazishmalar orqali topilganligi uchun 60-50 sm pastda joylashgan. Bugungi kunda bu inshoot islom dunyosi ma'rifatparvarlari va allomalarining diqqat-markazida hamda turistlarning sayohatgohiga aylangan.

Maqbaraga O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e‘tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarasi ham qayta ta‘mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritilgan.

2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risi”dagi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me‘moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

### **Minorai Kalon**



Minorai Kalon (Katta miqra) me‘morchilik namunasi Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrda amiri Arslon Bug‘roxon tomonidan bunyod etilgan.

Arslon Bug‘roxon Muhammad ibn Sulaymon (to‘liq ismi Muhammad ibn Sulaymon ibn Dovud Kuchtegin ibn Tamg‘achxon Ibrohim, (1130-1131) – Movarounnahr hukmdori (1102-1130). Qoraxoniylardan bo‘lgan bu amir Barqiyoruq vassalli Sulaymonteginning o‘g‘li bo‘lgan. U 1102-yil Samarqand taxtiga Arslonxon unvoni bilan o‘tqazilgan. 12 ming mamlukdan iborat qo‘shin tuzib Dashti Qipchoqqa bir necha bor harbiy yurishlar qilgan. Umrining oxirida falaj bo‘lib qolganligi tufayli taxtni o‘g‘illari – dastlab Nasr, so‘ng Ahmad bilan hamkorlikda boshqargan. Samarqand Saljuqiylar tomonidan egallangach (1130-yil, 13-mart), Arslonxon Balxga jo‘natiladi va ko‘p vaqt o‘tmay o‘sha yerda vafot



etadi. U Mavrdagi o'zi qurdirgan madrasaga dafn etilgan. Arslonxon davrida madaniy hayot bir muncha rivojlangan. Buxoro va uning viloyatida ko'plab binolar qurdirgan. Bulardan: Jarqo'rg'on minorasi va Masjidi Kalon yonidagi minora hozirgacha saqlangan.

Me'moriy obida bunyod etilgan davrdagi tarixiy shart-sharoitga to'xtaladigan bo'lsak, Qoraxoniylar tomonidan 992, 996, 999-yillarda Movarounnahr tomon uyushtirilgan yurishlar natijasida Somoniylar hukmronligi tugatildi. Bu davrda Saljuqiylar g'aznaviylarga xavf sola boshlaydi. Saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi. Qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo'ritegin 1038-yilda Amudaryo bo'yi viloyatlari – Xuttalon, Vaxsh va Chag'aniyonni g'aznaviylardan tortib oladi. Ko'p vaqt o'tmay u Movarounnahrni va Farg'onani o'ziga bo'ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketdi. Biri poytaxti Bolasog'unda bo'lgan Sharqiy qoraxoniylar, ikkinchisi markazi Samarqandda bo'lgan Movarounnahrdagi Qoraxoniylar davlati edi. Bu davrga kelib siyosiy jihatdan tobora zaiflashib borayotgan Qoraxoniylar davlati o'zining avvalgi mavqeyini yo'qotib, saljuqiylar tayziqiga uchraydi va unga qaram bo'lib qoladi.

Minorai Kalonning bunyod etilishi o'rta asrlarning rivojlangan davriga (XII asr), aniqrog'i, 1127-yilga to'g'ri keladi.

Me'moriy obidaning qurilishida tosh, maxsus qir qotishmasidan, chorsu pishiq g'ishtidan, loy, taxta va boshqa bir qator ashyolardan foydalanilgan. Uning dizayni haqida gapiradigan bo'lsak, balandligi 50 metr, aylanma eni 9 metr. Minoraning salla shaklidagi yuqori qismi g'isht o'ymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. O'qsimon tirgak o'rtasida Arslonxonning nomi hamda binokor ustaning ismi (usta Baqo) bitilgan. Minora ichida g'ishtin aylanma zinapoya bo'lib, mezanaga olib chiqadi. Kursisi qirrador, tanasi g'olasimon, tepasi gumbazli davra qafasa-ko'shk bilan bog'langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 aylanma zinapoya orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga o'tiladigan ko'prikcha bo'lgan. Minorai

Kalonning o‘zagi ham, bezagi ham chorsu pishiq g‘ishti (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak g‘ishti o‘rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g‘ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy-diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik to‘kilib ketgan).


Me‘moriy obidaning uslubi haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot pishiq g‘ishtdan Sharq an‘analarining naqshdor shakllar uslubida ishlangan. Me‘moriy inshootning o‘ziga xos tomoni shundaki, u Buxoro shahrida qad ko‘targan boshqa inshootlardan o‘zining me‘moriy yechimi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari, me‘moriy inshoot balandligi jihatidan ham boshqa me‘moriy inshootlardan ajralib turgan.

Minora o‘z davrida muazzin uchun azon aytish joyi vazifasini o‘tagan bo‘lsa, harbiy maqsadlarda esa kuzatuv obyektini ham bo‘lganligi tarixiy manbalarda saqlanib qolgan.

Minoraning bugungi kungacha bo‘lgan holatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, tanasi va muqarnaslari ta‘mir etilgan (1924). Yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta‘mirlangan (1960). Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Minorai Kalonda ham ta‘mirlash ishlari olib borildi (1997). Bundan tashqari, me‘moriy inshoot atroflari obod etilib, ko‘kalamzorlashtirilgan.

Me‘moriy obidaga xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e‘tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me‘moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

## Vobkent minorasi



Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan Vobkent minorasi Qoraxoniylarning Boxorodagi noibi Sadr Burhoniddin Abdulaziz II tomonidan bunyod etilgan.

Sadr Burhoniddin Abdulaziz II Qoraxoniylar davridagi amaldorlardan biri. Tugʻilgan yili maʼlum emas. 1199-yil Gʻijduvonda vafot etgan. XII asrda Qoraxoniylar hukmdorlari ham islom dinini qabul qilgan boʻlib, diniy yer-mulklarga ham eʼtibor

Somoniylar davridagi darajaga koʻtarilgan. Burhoniddin Abdulaziz XII asrning soʻnggi choragida Buxoroda sadr – vaqf yerlarining boshqaruvchisi lavozimiga

tayinlangan. U Abduxoliq Gʻijduvoniyning muridlaridan biri boʻlgan va Vobkent minorasi ham Gʻijduvoniylar tashabbusi va mablagʻi evaziga qurilgan.



Rus tadqiqotchisi I.I.Ulyanovning maʼlumotlariga qaraganda, Sadr Abdulaziz II Abduxoliq Gʻijduvoniyning taklifi bilan bu yerda dastlab, 1190-yillarning boshida masjid qurdirgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida masjidning kattaligi 22/18 metrni

tashkil qilganligi aniqlandi. 1196-yilda masjidning chap yonida muazzin azon aytishi uchun minora qurilishi boshlanadi va 11 oyda uning qurilishi yakunlanadi. XVI asrda, shayboniylar hukmronligi davrida masjidning oʻng tomonida madrasa quriladi. XX asrning boshlarida esa eng dastlabki inshoot hisoblangan masjid buzilib ketgan.

Minora rivojlangan oʻrta asrlar davrida, 1196-1197-yillar oraligʻida bunyod etilgan.

Uning qurilishida har xil oʻlchamdagi pishgan gʻisht, tosh, maxsus “qir” qotishmasi va shu kabi mahsulotlardan foydalanilgan. Inshoot Oʻn ikki qirrali supa asosga oʻrnatilgan gʻoʻla (quyi qismining diametri 6,19 m., yuqori qisminiki – 2,81 m.) shaklida rangdor, pishiq gʻishtlardan qurilgan. Bir paytlar yonida mavjud boʻlgan masjid tomonidan kirib, yuqoriga aylanma zinapoya orqali chiqilgan. Boʻrtma naqshli 10 belbogʻ bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir-biriga oʻxshamaydigan qilib gʻisht terib naqshlangan, quyisidagi naqshlar orasida qurilgan yili va qurdirgan shaxs (Sadr Burhoniddin Abdulaziz II)ning nomi kufiy uslubida yozilgan. Minoraning uchi kengaytirilib, qafasa ishlangan (diametri 3,66 m), gʻisht terib ishlangan 10 ravoq orasida 10 darcha hosil qilingan, darchalarning quyisi gʻisht panjara bilan toʻsilgan. Minoraning tashqi koʻrinishi koʻp jihatdan Minorai Kalonga oʻxshaydi, lekin muqarnaslari ancha sodda. Minora supasi tuproq ostida qolgan, qurilgan paytida uning balandligi 2,3 m boʻlganini arxeologik tadqiqotlar koʻrsatadi. Minoraning umumiy balandligi esa 40,3 metr.

Minora Sharq meʼmorchilik anʼanalarini oʻzida mujassamlashtirgan, minora uslubida bunyod etilgan.

2004-yil minora qafasasining tepa qismi yopildi va hozirda minora yonida saqlanib qolgan madrasa mahalliy aholining eʼtiqodi uchun masjid vazifasini oʻtab kelmoqda.

### **Magʻoki Attori**

Mogʻaki Attor masjidi XII asrda qoraxoniylar hukmronligi davrida bunyod etilgan. XVI asrda shayboniylar sulolasi xonlari davrida qayta qurilgan.



Uni qayta qurishni tashkil qilgan Iskandarxon (1561-1583) va Abdullaxon II (1583-1598) hukmronligining dastlabki yillarida Samarqand hokimi boʻlgan. 1583-

yilda Abdullaxon bilan oralari buzilgan, Abdullaxon Andijonda isyon ko'targan Isfandiyor sultonga qarshi qo'shin tortganda Isfandiyor sulton unga qo'shilishdan bosh tortgan. Do'stum sulton (Toshkent hokimi), Isfandiyor sulton (Andijon hokimi) va O'zbekxon (Hisor hokimi) bilan Abdullaxonga qarshi ittifoq tuzib Isfandiyor sulton boshliq qo'shin Buxoro atrofini talon-taroj qilgan. Isfandiyor 1586-yil 16-avgustda fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. Abdullaxon o'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonqol hokimi bo'lgan. Otasi Iskandar sulton o'g'li tug'ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik, aftidan aka-ukalaridan biri vafot etgach, Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib borgan. Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, san'at, shaharsozlik, adabiyot va shu kabi sohalar gullab-yashnadi.

Me'moriy obidaning asosiy qismi va so'nggi holatdagi ko'rinishi o'rta asrlarning so'nggi davrida, XVI asrda bunyod etilgan.

Me'moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g'isht, yog'och, loy, maxsus "qir" qotishmasi, tosh, ganj va shunga o'xshash ashyolardan keng foydalanilgan. Me'moriy obidaning dizayni: Qadimiy 4 ustunli Moh masjidi (IX asr) o'rnida XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan (1934-yilda arxeologik tadqiqotlar asosida aniqlangan). XIV asrda ta'mirlangan, XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. Shayboniy Abdulazizxon davrida (1541-1542-yillar) binoning yuqori qismi, gumbazlari qayta qurilgan. Masjid tarhi (13,35x17,6 m) sodda yechimga ega, ichkarisi 6 ustunli, 12 gumbazli, o'rta gumbazi balandroq bo'lib, uning asosidagi darchalar orqali bino ichiga yorug'lik tushadi. Sharqiy qismini keng pillapoyali zina egallagan. Bosh tarzidagi peshtoq g'ayriodatiy ravishda binoning yon tomonida joylashgan. Keyinchalik sharqiy qismi qayta qurilgan. Peshtoqining ko'rinishida yoysimon chuqur ravoq va undagi o'ziga xos bezaklar muhim o'rin tutadi. Ganj va mayda g'isht bo'lakchalaridan bezatilgan

peshtoq hashami g'oyatda nafis va yuksak badiiy did bilan bajarilgan. Namoyon o'lchamlariga mutanosib ravishda murakkab bo'rtma naqshlar ishlangan. Ustun go'shalari o'yma naqshlar bilan, bog'chasi vazasimon shaklda ko'kalamzorlashtirilgan.

Me'moriy obida Sharq me'morchiligi an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, "Chor" uslubida bunyod etilgan.

Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlaridan biri, Mag'ok (chuqurlik)da va Attor bozori yaqinida joylashganligi sababli Mag'oki Attori madrasasi deb atalgan. Inshootning bezaklari XII asr Buxoro me'morchilik maktabining yuksak na'munasi sifatida O'zbekiston me'morchiligi tarixida alohida o'rin tutadi. Vaqt o'tishi bilan masjid ko'milib ketgan. Masjidning sharqiy peshtoqidagi yozuvlarga ko'ra, 1547-yilda Abdulaziz ibn Abdulloh masjidni buzdirib, o'rniga yangi masjid qurdirmoqchi bo'ladi. Ammo naqshbandiya tariqatining o'sha davrdagi peshvosi va xonning murshidi Maxdumi A'zam bunga yo'l qo'ymaydi. Me'moriy obidaning 1939-1949-yillarda peshtoqi mustahkamlanib ta'mirlangan, atrofi obodonlashtirilgan. Bundan tashqari, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yurtimizdagi boshqa me'moriy inshootlar qatorida ushbu inshoot ham ta'mirlandi.

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Mag'oki Attor masjidi ham qayta ta'mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda "Muzeylar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kabilar me'moriy obidaning huquqiy kafolatidir.



## **Karmana me'morchiligi.**

### **Mir Sayyid Bahrom maqbarasi.**

Mir Sayyid Bahrom maqbarasi Karmana shahri markazida joylashgan. U XXI asrlarga xos bo'lib, respublika hisobidagi obidalar qatoriga kiradi. Bino

somoniylar davrida bunyod etilgan bo‘lib, uning ichki qismi o‘rtasida Mir Sayyid Bahrom dafn etilgan. Qabr yonida arabcha so‘zlar bilan yozilgan ikkita qabr toshi ham saqlanib qolgan.

Maqbara bir gumbazli, to‘rtburchak shaklida, hamma tomoni bir xil o‘lchovdagi pishiq g‘ishtdan tiklangan bo‘lib, yonida ayvonlari bo‘lgan. Bino ko‘p ta‘mirlanish natijasida deyarli dastlabki ko‘rinishini yo‘qotgan, uning old qismi juda ustalik bilan bezatilgan, g‘isht turli usulda terilib, unga har xil shaklda bezak berilgan. Maqbaraning janubiy tomonida bitta eshik bor, uning tepa qismida kungurador, panjarali tuynuk ochilgan. Uning peshtoqi pishiq g‘ishtdan qayta terilgan, unga geometrik naqshlar, kufiy usulda bitik yozilgan. Maqbaraning birinchi tadqiqotchisi A.K. Pisarchik<sup>5</sup> hisoblanadi.

XX asrning 60-yillarigacha bu yodgorlik ko‘pchilikning e‘tiborini tortib kelgan. 1969-yilning qattiq qishida ko‘p qor-yomg‘ir yog‘ishi natijasida maqbara binosi qisman cho‘kib, devorlari va gumbazlarida yoriqlar paydo bo‘lgan. U deyarli vayron bo‘lish darajasiga kelib qolgan. Maqbaraning qayta ta‘mirlanishi jarayonida unga yondosh ayvonli masjid buzilib ketgan.

Tarixiy manbalarda Mir Sayyid Bahrom shaxsi to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar yo‘q. O‘lkashunos A. Rahmonovning yozishicha: “U kishi ehtimol musulmon dinining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgandir yoki somoniylar sulolasi vakillaridan biridir, chunki maqbara qurilishi jihatidan Ismoil Somoniy maqbarasiga bejiz o‘xshatib qurilmagan”.

Abu Bakr Muhammad Narshaxiy “Buxoro tarixi” kitobining “Buxoro va unga qo‘shiladigan joylar” bayoni qismida Karmana haqida ma‘lumot berar ekan, shunday yozadi: “Uning o‘ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor, unda masjidi jome’ barpo etilgan”. O‘ylashimizcha, Narshaxiy bu bilan balki ana shu yodgorlikni yoki Hazora qishlog‘idagi Deggaron masjidini nazarda tutgan bo‘lishi

---

<sup>5</sup> Inoyatov S., Hayitova O. Karmana tarix ko‘zglasida. – T., “Sharq” NMAK, 2006.

mumkin. Olimning e'tirof etishicha, Somoniy va undan so'nggi amirlar o'zlari hukmronlik qilgan joylarda masjid, xonaqoh, karvonsaroy va qasrlar qurish, binolar barpo etishga katta e'tibor berganlar.

Ma'lum muddat Karmanada yashab, 1874-yilda shu yerda vafot etgan Abu Tohirxoja o'zining "Samariya" kitobining "Samarqand shahrining oliy arkidan tashqarida bo'lgan serbarakot mozorlar" bobida 13-mozor Hazrat Bobo Xoja Safoning mozori shahar tashqarisida ekanligini eslatib, shu avlodga mansub qalandarlar avlodidan "u Mir Bug'royi qalandardan, u Sayyid Bahromdan..." kuloh va janda kiyganini eslatadi.

Mahalliy hokimlikning, Respublika yodgorliklarini ta'mirlash viloyat bo'limining sa'y-harakati bilan Mir Sayyid Bahrom maqbarasi bugungi kunda atrofi obodonlashtirilib, uning yonida katta "Yoshlik" bolalar istirohat bog'i tashkil etilgan. Bog'da 140 o'rinli yozgi kinoteatr, musiqa maktabi, o'quvchilar uyi faoliyat yuritmoqda. Karmanaliklar har yili Mustaqillik, Navro'z sayillarini ana shu maqbara qarshisidagi bog'da o'tkazishni odat qilganlar.

## **SURXONDARYO ME'MORCHILIGI.**

### **Jarqo'rg'on minorasi.**



Jarqo'rg'on minorasi Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon tomonidan bunyod etilgan. Minoraning qurilishiga rahbarlik qilgan arxitektor Ali ibn Muhammad Saraxsiy bo'lib, minora kitobasida uning nomi yozib qo'yilgan. U hozirda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani Alisher Navoiy jamoa xo'jaligiga qarashli Minor qishlog'ida joylashgan. Mazkur inshoot nomi bilan u joylashgan qishloq ham Minor deb ataladi.

Arslonxon Qoraxoniylar sulolasiga mansub Movarounnahr hukmdori bo'lib, to'liq ismi Muhammad ibn Sulaymon Dovud Kuchtegin ibn Tamg'achxon



Ibrohim. U 1102-yilda Arslonxon nomi bilan Movarounnahr taxtiga o'tirgan. 12 ming mamlukdan iborat qo'shin tuzib, Dashti Qipchoqqa bir necha bor yurishlar qilgan. Umrining oxirlarida falaj bo'lib qolganligi tufayli taxtni o'g'llari – Nasr, so'ng Ahmad bilan birga boshqargan. 1130-yil Samarqand Saljuqiylar tomonidan egallangach, Arslonxon Balxga jo'natilgan va o'sha yerda ko'p o'tmay vafot etgan. Arslonxon davrida madaniy hayot bir muncha rivojlangan. Movarounnahrning ko'plab viloyatlarida binolar qurilgan, shular ichida Jarqo'rg'on va Minorai Kalonlar mashhurdir.

Jarqo'rg'on minorasi rivojlangan o'rta asrlarda, XII asrning boshi, ya'ni 1108-1109-yillarda bunyod etilgan.

Xurosondan ko'chib kelgan musulmon diniga mansub aholi e'tiqodi uchun dastlab minora yonida masjid bunyod etilgan (yonida bir vaqtlar pishiq g'ishtdan qurilgan Jome' masjid bo'lgan, lekin u saqlanmagan) va atrof joylardan aholini namozga chaqirish qulay bo'lishi uchun, muazzin – azon aytuvchi uchun minora bunyod etilgan. Keyingi asrlarda harbiy maqsadda – kuzatuv obyekti vazifasida ham foydalanilgan.

Me'moriy inshoot qurilishida turli hajmda va shakl-shamoyili o'zgartirilgan pishiq g'ishtlardan, maxsus “qir” qotishmasidan, poydevori esa to'rtburchar shakliga keltirilgan va xalq orasida “dev g'isht” deb atalgan pishgan g'ishtlardan ishlab chiqilgan.

Jarqo'rg'on minorasi 8 qirrali poydevor ustiga g'ishtdan mavj shaklida terilgan 16 plitavor qobirg'adan iborat. 20 m balandlikda g'ishtin panjarali ravoqlar ishlanib, uning ustida kufiy yozuvli belbog' hoshiya bor. Belbog' ustida yana qirralar davom ettirilgan, lekin minora tepasi saqlanmagan. Arxeolog olim N.N.Karazin rasmida masjid va minora xarobasi aks ettirilgan (1879-y.). Minoraning hozirgi balandligi 21,6 m., asosi (diametri – 5,4 m)ning kitobasida me'mor nomi Ali ibn Muhammad Saraxsiy va qurilgan sanasi yozilgan (V.A.Shishkin tomonidan o'qilgan). Ichki qismi esa bezaklarda holi ravishda odiiy

pishgan g'ishlardan ishlangan va yuqoriga ko'tariladigan zinaning har bir pog'onasi 30-40 sm ni tashkil qiladi.

Jarqo'rg'on minorasi islom me'morchiligining Xuroson me'morchilik maktabi an'analari uslubida barpo etilgan.

Minoraning o'ziga xosligi shundaki, bunday inshoot O'rta Osiyoning biror bir hududida uchramaydi. Chunki, boshqa minoralarning aylanasi tekis holda ishlangan bo'lsa, Jarqo'rg'onida esa 16 ta o'ziga xos qovurg'alar mavjud. Bundan tashqari, boshqa minoralar singari baland qilib qurilmagan. Tadqiqotchilarning fikricha, inshoot ko'rinishi jihatidan Italiyadagi Piza minorasini eslatadi.

Me'moriy obidaning janubiy tomonida dastlab masjid bo'lganligi arxeologlar tomonidan aniqlandi. Lekin masjid XIX asr o'rtalarida buzilib ketgan, minoraning yuqori qirra qismi esa saqlanmagan. Hozirda minora atroflaridagi eski masjidning devorlari tiklangan, minoraning o'zi esa rekonstruksiyadan o'tkazilgan, atroflari bog' va gulzorga aylantirilgan.

Me'moriy obidaga hukumatimiz hamda Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e'tiborga to'xtaladigan bo'lsak, inshoot YUNESKO tashkilotining "Butun jahon madaniy yodgorliklari ro'yxati"ga kiritilgan, davlat muhofazasiga olingan. Shuningdek, 2002-yil Termiz shahrining 2500 yillik yubeliyi munosabati bilan minora qafasining tepa qismi ta'mirlandi. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000-yil "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" hamda 2008-yil 12-sentabrda "Muzeylar to'g'risida" qabul qilingan qonunlar me'moriy obida muhofazasining huquqiy kafolatidir.



## **Sulton Saodat majmuasi**

Termiz shahridagi ushbu me'moriy yodgorlik 20 ga yaqin maqbarani o'z ichiga olgan. (X-XVII asrlar). Termizning sharqida joylashgan bu ziyoratgoh 7 asr davomida shakllangan. Unda Sayyidlar sulolasining maqbaralari joylashgan. Dastlab shu atrofdagi yerlar egasi, payg'ambarimiz avlodlaridan bo'lmish Hasan al-Amir (IX asrning 2-yarmida vafot etgan) maqbarasi bunyod etilgan. Xalq orasida Sulton Saodat majmuasi nomi bilan mashhur bo'lgan maqbaralar X asrda, qolganlari, asosan, XV-XVII asrlarda yonma-yon qurilib, uzun hovlining 2 tomonini egallagan. Maqbaralar peshtoq va gumbazli chorsu xonalar (9x9,05 m va 10,15x10,25 m)dan iborat. Hovlining to'ridagi peshtoq va ikki qanotidagi gumbazli maqbaralar bir xil tarhda, janubdagi maqbara zinalar hisobiga kichikroq ko'rinadi. Shimoliy-g'arbidagi maqbaraning qurilma va bezaklari oddiy g'isht (27x27x5 sm)dan juft-juft qilib terilib, mavjli bezak hosil qilingan. Ichki xona devorlariga g'ishtdan hoshiyali bo'rtma ravoqlar ishlangan. Janubiy-g'arbdagi maqbara shimoliy-g'arbdagidan bir oz kichik, ko'rinishi oddiy, ganch suvoqli. Mazkur 2 maqbara orasidagi peshtoqning supasi to'rida mehrob joylashgan. Sirkor koshinlar binoga alohida husn bag'ishlagan. XV-XVII asrlarda qurilgan maqbaralarda o'sha davrga xos yulduzsimon girrix naqshlar, ganchkori bezaklar keng qo'llanilgan. Majmua mustaqillikdan keyin ta'mirlanib, ziyoratgohga aylantirilgan.

2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi hududida dunyo sivilizatsiyasi rivojlanishida katta o'rin tutgan, asrlar davomida saqlangan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon, Marg'ilon, G'ijduvon, Vobkent, Termiz va boshqa tarixiy shaharlar, mavjud bo'lgan me'moriy va tarixiy obidalar davlat muhofazasiga olingan. Inshoot YUNESKO tashkilotining "Butun jahon madaniy yodgorliklari ro'yxati"ga kiritilgan. Me'moriy obidaga hukumatimiz tomonidan berilayotgan

e'tiborga to'xtaladigan bo'lsak, 2002-yil Termiz shahrining 2500 yillik yubeliyi munosabati bilan inshootning hozirgi qiyofasi shakllantirildi.

Termiz yaqinidagi qirq qiz qal'asi o'zining konstruktiv va me'moriy yechimlari bilan hammani 1000 yildan beri lol qoldirib kelmoqda. Uning tarhi kvadratga yaqin ko'rinishda bo'lib (53,8x 54,8m) to'rt burchagida to'rtta guldastasimon burjlari bor. Diqatga sazovor joyi shundaki, paxsa va xom g'ishtdan tiklangan bu imoratning asosiy devori mana ming yildirki qad ko'tarib turibdi. Buning bir necha omillari bor. Birinchidan bino atrofi xadaq bilan o'rab olingan bo'lib, u ham yaxshi saqlangan. Bu esa qazib olingan tuproqning qurilish materiali sifatida ishlatilganligidan tashqari, binoning suniy tepaligiga yotqiziq bo'lishi, mudofaa inshootini tashkil etishda hamda yer osti suvlarini mana shu chohga to'plab bino poydevoriga sizib chiqishini bartaraf etishda muhim o'rin tutgan. Ikkinchidan minglab yillar davomida yaratilgan va bugungi kunda e'tiborsizlik natijasida unutilib ketgan maxsus loy qorish va uni ishlatish texnologiyasi afzalligini ko'rsatib o'tish lozim. Nomigagina davlat tomonidan muhofaza etiladigan, aslida qarovsiz bo'lgan bu binoning oxirgi gumbazlar qulab hozirgi kunda bir necha uzunchoq dahlsiz yopmalari nuragan holda saqlanib turibdi.

Yana bir diqatga sazovor bino — bu Samarqand viloyati, Tim qishlog'idagi Arab-Ota maqbarasidir. Bu inshootni qator olimlar 977/78 yillarda maqbara sifatida qurilgan deb hisoblashsa, P. SH. Zohidov uni keyinchalik maqbaraga aylantirilgan, aslida somoniylar qasrlaridan birining saqlanib qolgan qismi, deb hisoblaydi. Arab-Ota maqbarasi ham 23x23x3,5 sm li pishiq g'ishtdan bunyod etilgan bo'lib, ichki razmeri 5,6x5,6 metrni tashkil etadi. Uning farqi shundaki, kirish yo'li bitta bo'lib, hashamdor peshtoq orqali yo'nalgan.

Garchi olimlar orasida O'rta Osiyo me'morchiligida peshtoqning ishlatilishi tarqalayotgan davrdan birmuncha oldin ma'lum edi, degan fikr mavjud bo'lsada, saqlanib qolgan obidalar orasida Arab-Ota maqbarasiga bu jihatdan dastlabki namuna deb qarash mumkin. Bu yerda peshtoq butun bir (sharqiy) devorni tashkil etadi. Kiraverishdagi toqining sechorak (silindrning 3/4i) qismi ustunga

o'rnatilganligi somoniylar maqbarasidagi kirishni eslatadi. Kiraverishdagi ravoq ustida yana uchta yorug'lik tushuvchi ravoqchalar joylashganki, bu uslub keyingi davrlarda peshtoqlar ustki qismini ravoqlar bilan bezatish yo'nalishini keltirib chiqaradi.


Qurilish uslubiga qarab X asr oxiri XI asr boshlarida qurilgan deb hisoblanadigan Karmanadagi (Navoiy rayoni) Mirsaid Bahrom maqbarasining ham old fasadini peshtoq, tashkil etadi. Uning ichki razmerlari 4,47x4,4 metrni tashkil etib, 21x21x2,5 sm li pishiq g'ishtdan qurilgan.

Umuman olganda IX—XII asrga oid maqbaralar O'rta Osiyo hududida anchagina saqlanib qolgan. Bular jumlasiga Termiz yaqinidagi Sulton Saodat kompleksidagi, O'zgan, Miyona, Seraxs, Mari (Qo'xna Marv) dagi va boshqa maqbaralar kiradi. SHularniyag ichida ayniqsa Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi diqatga sazovordir. 1175 yilda vafot etgan va Xuroson hokimi bo'lgan saljuqiy Sulton Sanjar o'zi hayotlik vaqtida qurdirgan, deb taxmin qilinuvchi bu bino devorlarining qalinligi 5 metrni tashkil etib, maqbaraning ichki tomonlari 17 metrni tashkil etuvchi kvadratdan iboratdir. Ichki balandligi 35 metrga teng bo'lgan bu imorat nihoyatda mahobatlidir. Kirish eshigi g'arb tomonda joylashgan. To'rtburchak qismining balandligi 15 m. Undan yuqoridagi gumbazga o'tuvchi sakkizburchak qismi tashqi va ichki tarafdin ravoqdor galereyani tashkil etadi. Sakkiz burchakning har uchidan gumbaz konstruksiyasini tashkil etuvchi qobirg'alar interyerda ko'rinib turadi. Ular o'zaro kesishgan toqlar ("linga zarba" usuli) majmuasidan iboratdir. Bino g'isht va ganchdan iborat girih hamda chizma naqshlar bilan ziynatlangan. Gumbaz tashqi ko'rinishi moviy rangda bo'lganligi haqida o'sha vaqtda yashab o'tgan mualliflarning ma'lumoti saqlanib qolgan Sirli koshinning qo'llanila boshlanishi mana shu davr ya'niy "XII asrdan boshlanganligini ko'pgina olimlar qayd etganlar.

Yana diqatga sazovor hol shuki, O'rta asrlarda O'rta Osiyo me'morchiligida keng ishlatilgan ikki gumbazli (ichki va ustki) konstruksiya ham dastlab XI—XII asrlarda Xurosonda uchraydi. Misol tariqasida Seraxsdagi Abul Fazl,

Miyonadagi Abu Said, Tusdagi al G'azoliy maqbaralarini ko'rsatib o'tish kifoya.

SHuningdek butun dunyoga mashhur Marv qadimda Xuroson markazi, hozirgi Mari va Bayram Ali shaharlari oralig'idagi xarobalar) yaqinidagi eng katta bir xonali imoratlardan hisoblanadigan Sulton Sanjar maqbarasi ham ikki qavatli gumbaz bilan yopilgan.



**1-chizma.** Afrosiyob jome masjid sharhi.

X-XII asrlarda bunyod etilgan maqbaralar ichida chodirsimon gumbaz bilan yopilganlari alohida ajralib turadi. Bu turdagi gumbazlar Pokiston, Hindiston va shu kabi mamlakatlarda "gumbazi turkistoni" deb nomlanishini e'tiborga olib biz ham shu iborani qabul qilamiz. Gumbazi turkistoni bilan yopilgan maqbaralar turkumiga qadimgi Toroz (hozirgi Jambul) yaqinidagi XI asrda qurilgan Bobaji Xotun va Ko'hna Urganchdagi Faxriddin Roziy hamda Sulton Tekesh maqbaralarini misol keltirish mumkin. Bu binolar ham pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib ichki va sirqi gumbazlardan iborat bo'lgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek IX—XII asrlarda qator yangi turdagi binolar barpo etildiki, ularning ahamiyati keyingi davr me'morchiligi taraqqiyotida benihoya katta bo'ldi. Jumladan masjidlar qurilishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki har qanday dinning targ'ibot va ideologiya markazi ibodatxona bo'lganidek islomning asosiy binosi masjid hisoblanadi.

E'tirof etishlaricha, Muhammad payg'ambar dastlab ibodatxona sifatida

onasining uyidan foydalangan ekan. SHuning uchun ham islomda asosiy keng taqalgan masjidlar turarjoylardagidek hovli atrofini o'rab olgan ayvon ko'rinishiga ega. Ammo islom dini Eron va O'rta Osiyo ga taqalgan davrda mahalliy otashgohlarga xos bo'lgan, katta bo'lmagan chortoq kompozitsiyasi ko'rinishidagi masjidlar qo'llanildi. Bunday uslub ko'shk qurilishida ham ishlatilganligi tufayli ingliz taqiqotchilari uni "kiosk" deb nomlashgan va bu termin hozirgi kunda juda keng ma'nolarda ishlatilmoqda.

O'rta Osiyoda dastlabki masjidlar Marv va Buxoroda VIII asr boshlarida qurilganligini tarixchilardan Istahriy va Narshaxiylar xabar berishadi. Dehiston (Mashxadi Misriyona)dagi SHiri Kabir va Barsiyonadagi (Turkmaniston respublikasi) masjid qoldiqlari VIII—IX asrlarda qurilgan bunday imoratlar — chortoq yoki kiosk tipidagi masjidlar namunasi bo'lib xizmat qiladi. Keyinchalik bu binolar turi taraqiy etib, mexrob tomoni alohida bezatiladi va ko'pincha uning to'grisida yagona kirish qismi joylashadi. Natijada Marv voxasidagi Talxatan bobo va Buxorodagi Mag'oki (yashirincha degani) attori kabi pishiq g'ishtdan qurilgan usti gumbaz bilan yopilgan XI—XII asrlar masjidi yuzaga keladi. Bular esa o'z navbatida o'rta asrlarda keng tarqalgan xonaqox tipidagi tomlarga ayvonlar yopishib turgan mahsulidan iborat maxalla va qishloq masjidlarining birinchi namunalari edi.

Hovlili masjidlarning dastlab barpo etilganlaridan biri Afrosiyob qazishmalaridan ma'lum. Somoniylar davrida paxsa pa 52x126F12 sm razmerli xom gishtdan bunyod etilgan bu masjid dastlab tashqi tomonlari 84,6x84,6 metr li kvadrat tarzida bo'lgan.<sup>6</sup> Uning ichki hovlisining to'rt tomonida xom g'ishtdan tiklangan ustunlar ko'tarib turgan ayvonlar bo'lgan. Keyinchalik masjid bir necha marta qayta qurilib mo'g'ullar istilosi davri (1220 yil) da uning tomonlari o'lchami 84,6x 137,4 metrni tashkil etadi. Uning Makka (qibla) ga qaratilgan mexrob tomoni ayvonining eni chuqurligi 34,5 metrli bo'lib qolgan uch tomon ayvonidan 1,5 martaba kengdir. Buxorodagi Kalon masjidining ham shu davrda yog'ochdan (sinchli bo'lsa kerak) qurilganligi va uni CHingizxon

---

<sup>6</sup>Axmedov M. Соборная мечеть. Афрасиаба Архитектура Узбекистана. 1976.

yoqib yuborganligi ma`lum.

SHu davrda Xurosonda bunyod etilgan hovli atrofi ayvonlar bilan o`ralgan masjidlar qatoriga Dandonakon (hozirgi Turkmaniston) dagi va Boshondagi masjidlarni misol keltirish mumkin. Ulardan birinchisi eni 25 va uzunligi 35 m ga yaqin bo`lgan to`g`ri to`rtburchak ko`rinishida bo`lsa, ikkinchisi kvadrat shaklidagi tomonlari 35 m dan ortiq va kiraverish tomonining chap (shimoliy-sharqiy) burchagida minorasi bo`lgan.

X—XI asr masjidlaridan yana Termizdagi CHorsutun va Karmana yaqinidagi razora qishlog`idagi Deggaron masjidlarini qayt etib o`tish lozim. Deggaron masjidi xona markazida joylashgan pishix g`ishtdan bunyod etilgan to`rt silindrik ustunlar vositasida yopilgan imoratdan iborat. To`rt ustunning ustida diametri 6,4 metr bo`lgan markaziy gumbaz va uning atrofida 8 ta yana kichikroq, gumbazlar bino qismini tashkil etadi. En devorlar xom g`isht va paxsadan iborat.

Tarixchi Muxammad Narshoxiyning ma`lumotiga Qaraganda Buxoroda. (shu jumladan Movarounarda)gi ilk masjid 713-yilda shu shahar arkida sanamlar butxonasi o`rnida qurilgan. Ayni shu tarixnavis Buxoro markazidan o`tadigan SHohrud yoqasida, sanam va but bozori yaqinida ibodatxonani qayta qurish natijasida paydo bo`lgan Moh masjidi haqida ham yozadi. V. V. Bartold va undan keyingi olimlar bu masjidni hozirgi Mag`oki Attori (hozirgi peshtog`i XII asrda qurilgan, asos qismlari X asr) o`rnida bo`lgan deb taxmin qilshadi.

Bizga ma`lum, necha-necha ming yilliklar davomida shakllangan odatga ko`ra namoz o`qish azonga chiqarishdan boshlanadi. SHuning uchun ham masjidlarni minorasiz tasavvur etish qiyin. IX asrga oid minora poydevori Afrosiyob masjidining shimoliy devori tashqarisida topilgan. Lekin uning yomon holatda saqlanganligi boshlang`ich ko`rinishi haqida fikr yuritish imkonini bermaydi. SHuningdek XII asr boshlarida qurilgan minoralar Tuzmoq (Bishkek yaqinida) shahrida, Ko`hna Urganchda, Termizda saqlanib qolgan.

Ammo Jarqo`rg`on (to`liq balandligida bo`lmasada), Buxoro va Vobkent minoralari yaxshi saqlanib qolganligi tufayli ularning tarixiga mufassalrog`



to'xtalamiz.

Jarqo'rg'ondagi minora 1108—1109 yillarda Seraxslik usto Ali ibn Muxammad tomonidan qurilganligi ma'lum. Uning dastlabki balandligi ancha viqorli bo'lib uch oshiyonadan iborat bo'lgan deb taxmin etiladi. Hozirgi saqlanib qolgan balandligi 21,6 m va ostki diametri 6,4 metrga teng. Devorlari yarim aylanasimon bo'rtmalar tarzida olinib ular yuqori qismida ravoqchalar bilan tutashtirilgan. Bu shakl O'rta Osiyo me'morchiligida ko'p qadim davrlardan boshlab mavjud bo'lgan va 1220 yilda Dehlida qurilgan qutb Minorada ham qaytariladi.

Bu davrda maqbara, masjid, minora, hammomlar, qasr va turarjoylardan tashqari ko'plab savdo binolari, dorush-shifo (tabobat uyi) va boshqa ko'pgina turdagi imoratlar qurilganligi ma'lum. Jumladan ko'plab madrasalar bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Lekin madrasalarning bizgacha yetib kelganlarini uchratmaymiz. Faqatgina SHohi Zinda kompleksidagi Tamgy Bug'roxon madrasasining qoldiqlari deb hisoblanuvchi imorat poydevori qazib o'rganilgan. Bu Madrasa xususida tarixiy manbalarda 1066- yili qurilgan, degan ma'lumotlar keltirilgan Arxeologik qazishmalar natijasi uning tomonlari 44x55 m bo'lgan deb, taxminlashga asos berdi. Kiraverishda sharqa qaratilgan, uncha katta bo'lmagan peshtoq joylashgan bo'lib, uning o'ng va so'l tomonlari da ikkita gumbazli darsxona o'rnashgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilinadi. Hovli atrofi taxminan 10 chog'li hujra, Madrasa masjidi va yozgi darsxona bilan o'ralgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki O'rta Osiyo juda qadim-qadim zamonlardan SHarq bilan G'arbni, Janub bilan SHimolni o'zaro bog'lab turgan. SHuning uchun ham savdo yo'llari va unda joylashgan karvon saroylari katta) ahamiyatga ega bo'lgan.

Aholi punktlari orasida joylashgan karvon saroylar "rabot" deb nomlangan. Avval aytib o'tganimizdek bu ibora shaharning markaziy qismini nomlash uchun ishlatiladigan raboy so'zidan farq, eta bilish kerak.

Movarounnahrda IX—XII asr rabot va karvon saroylarinint ko'pchiligi yuqolib ketgan bo'lib, ko'plab Toshrabot, qo'shrabot Ovqabot singari joy va

nomlargina saqlanib qolgan. Xuroson sahro sarhadlarida esa Dog'iston va Boshon yaqinidagi hamda Axcha qal'a, Suli tepa, al Askar, Beylovli kabi qator rabot xarobalari bor.

Vayrona holida bizgacha yetib kelgan karvon saroylari orasida CHorjoydan taxminan 170 km shimolda joylashgan Doya xotin va Karmanadan 25 km cha janubroqdagi Buxoro yo'lida joylashgan Raboti Malik inshootlari katta ahamiyatga ega. Bu rabotlarning har ikkisi qism mustahkam mudofaa sistemasiga ega bo'lgan. U yerda to'xtagan karvon uchun bir necha soatdan boshlab, bir necha kungacha tirikchilik o'tkazish imkoniyatlari yaratilgan bo'lgan. Doya xotin rabotining dastlabki nomi tarixiy manbalarda keltirilgan Tohiriylar sulolasining asoschisi Tohir ibn Husayn (776-822 yillar) qurdirgan Tohiriya karvon saroyiga muhoyasa etiladi. Bu inshootning asosiy binosi tarxi kvadrat tarzida bo'lib, tomonlari 53x53 metrni tashkil etadi. Bino devorlari xom g'ishtdan ishlangan bo'lib ichki va tashqi tomonidan 28x28x5,5 sm o'lchamli pishiq g'isht bilan qoplangan. Devorlarning tashqi to'rt burchagi mustahkam burjlar bilan mustahkamlangan. Binoga peshtoq orqali o'tiluvchi yo'ldan kirilgan. Kirish yo'lagining o'ng va chap tomonida biridan-biriga o'tiladigan xonalar joylashgan. Karvon saroy to'rida gumbaz bilan yopilgan, tomonlari 4,3 m dan iborat kvadrat xona joylashgan. Qolgan xonalar 39x 39 metrli hovliga qaratib qurilgan, ular qiyshiq ayvon orqali bir-biri bilan bog'langan. Bu yerda ham qubbali gumbaz, ham balxi gumbazi, ham shirvoni yopma uchraydi. Qubbali gumbazga o'tuvchi kvadrat burchak panos (parus)lari g'ishtni osiltirib chiqarib, ustma-ust burchakli chiqarilish (konsol)lar vositasida bajarilgan. Karvon saroy binosi rabot bilan tanshari tomonidan o'rab olingan.

Rabota Malik karvon saroyi esa 1078—1079 yillarda Qoraxoniylar SHame ul-Mulk tomonidan qurilgan, deb taxmin qilinadi. Bir qator olimlarning fikricha bu bino buyurtmachisi noma'lumdir. Bu imorat ham xom g'isht (28x28x6,5 sm)dan qurilib, 24x24x4 sm o'lchamli pishiq g'isht bilan pardozlangan. Hozirgi kunda faqatgina peshtoqi saqlanib qolgan bu binoning tarxi 86x 86m o'lchamli kvadrat shaklida bo'lgan. Devorlarining balandligi 12 metr ekanligi uning ikki

oshiyonalik bo'lganligidan dalolat berib turibdi. Bino ikki qismdan iborat bo'lgan. Peshtoqadan kirgach ko'ndalang joylashgan hovliga chiqilgan, uning to'rttala tomoni xonalar bilan o'rab olinganligi aniqlangan.

Hovlining to'ridagi ikkinchi qismi markazida katta gumbazli saroy va atroflari yaxlit tomli xonalar joylashgan. Old ko'rinishining ikki burchagini ikki minora bezab turgan. Minoralardan peshtog'igacha bo'lgan devor oralig'ida kungurador (ruschasiga gofr) yarimustunlar joylashtirilgan bo'lib, ularning usta ravoq toqlari bilan birlashtirilgan. Bir vaqtlar bu rabot katta kompleksdan iborat bo'lgan va hozirgi kunda qarama-qarshisida sardoba saqlanib qolgan.

Har holda sardobalar qurilishi biz ko'rib chiqayotgan davrda shaharlar oralig'ida joylashgan karvon saroylar — rabotlar uchun xos narsa bo'lsa kerak. Chunki ko'pincha sardoba shu yerdagi birdan bir suv manbai bo'lib xizmat qilgan. Bu inshootlar gumbazli suv yig'g'ich — aylansimon hovuzlar tarzida qurilgan. Ular maxsus inshoot orqali qor va yomg'ir suvlarini, ba`zan quduqlardan oqizilgan suvlarni uzoq muddatga y'lovchilar uchun saqlashga xizmat qilgan. Suv siqib ketmasligi uchun g'ishtlar maxsus tosh mair bilan terilgan va pardozlangan.

Shunday qilib IX—XII asr O'rta Osiyo me`morchiligi ham shaharsozlik, ham binolar yangi turlarining vujudga kelishi, ham yangi qurilish materiallari va konstruksiyalari, bezatish ziynatining o'ziga xosligi va boshqa jihatlari bilan yaqol ajralib turadi hamda shu davrni o'rganish borasida katta ahamiyat kasb etadi.

## **§ 2. Shoh – Axsiiy tarixiy obidasi haqida.**

### **Buxoro hududidagi qadimgi ko'chalar va ularning nomlanishi.**

Joy nomlari jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'langan ma'naviy ehtiyojdir. Darhaqiqat, insoniyat taraqqiyot davomida, o'z ehtiyojini qoldirish uchun tobora qulaylik yaratadi. Har bir yaratilgan qulaylik (g'oya ) esa bugungi va ertangi kunimizning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Faraz qilaylik, kutilmaganda shahar, tuman, qishloq, ko'cha, maydon yoki xiyobonlarning nomi tasodifan go'ib bo'lib

qoldi. Shunday paytda odamlarning holatini bir ko'z o'ngingizga keltiring. Pochta, telefon, telegraf xizmati o'sha ondayoq to'xtab qoladi. Transportlarning yurishi izdsan chiqadi. Uyingizga chaqirilgan "tez yordam" mashinasi borar manzilini bilmay ovora bo'lib qoladi. Shunga o'xshash yuzlab muammolar girdobida odamlar sarson sargardon bo'ladi. Shu farzning o'zidan odamlarning kundalik ehtiyoji uchun joy nomlarning nechog'lik zarurat ekanligini tasavvur qilish mumkin.

Joy nomlari kundalik ehtiyojdan tashqari ma'naviy ehtiyoj hamdir. Ularning nomlanishida xalqimizning tarixi, urug'- ajdodi, madaniyati, tili, kasb-kori, iqlimi, tabiiy –geografik sharoiti o'z ifodasini topgan.

“Bugungi kunda yoshlarimizning ko'cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta- katta maydonlar, binolarni bezab turgan o'bekona nomlar, shior va lavhalarni ko'rib, bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizga bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi ” (I.A.Karimov (Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch').

Butun respublikamiz bo'lgani kabi, sobiq kamunistik tuzum davrida Buxoro shaxridagi ko'plab ko'chalarning tarixiy nomlari asossiz ravishda o'zgartirildi. Ularning o'rnini Ilya , Ulyanov, Lenin, Frunze, Krunskaya, Komuna, Sovetskaya, Dekabristov, Aktyabrskaya, Kommunistecheskaya kabi nomlar egalladi. Qadimiy shahar ko'chalarining peshtoqasiga yopishtirilgan bunday nomlar sho'rolar hokimiyatining xalqimiz ma'naviy ildiziga bolta urish uchun maxsus o'ylab yuritgan siyosatining bir ko'rinishi edi.

Ollohga beodat shukronalar bo'lsinkim, mustaqillik shaxar qishloqlarimizning asl qiyofasini qaytarib berdi. Ularning yuzidan nomunosib nomlar yulib tashlandi. Buxoro shaxrining shox- ko'chalariga Abduxoliq G'ijduvoni, Ibn Sino, Abu Xafs Kabir, Bahovuddin Naqshband, Shox Aysi nomlari qo'yildi. Bu har bir vatandoshimiz ongi va qalbida vatanga sadoqat, milliy iftixor hissi joy olganligining yorqin ifodasidir.

20 asrning buyuk allomasi Xoja Ismatullo Buxoriy shunday degan edi:

Chun zor hohyo kushtanam, az kuy xud duram marom,

Man bulbuli betoqatam, duram zi gulzoram makum.

(zorliqda meni o'ldir, men rozi man, lekin vatandan meni judo aylama.

Men betoqat bulbul man, gulzorimdan uzoqda o'dirmagin)

Xoja Ismatulloh Buxoriyning nomi sho'rolar davrida unutilgan, ziyoratgohlari esa xarobaga aylangan edi. Istiqlol sharofati bilan o'z yurtining shaydosi bo'lgan shoirning ziyoratgohlari obod bo'ldi va u mavze shoirning nomini oldi. Buxoro shahri ichidagi Shox Aysi masjidi atrofidagi guzar nomi ham Shox Aysi deb ataladi. Bu labi hovuzdan Samarqand darvozasiga qarab boraverishida joylashgan.

Hazrat Poyanda Muhammad Shox Aysi naqshbandiya tariqatining rivojiga muhim hissa qo'shgan shayx, o'z zamonasining murshidi sohib karomad avliyo, ulug tarbiyachi bo'lganlar.

Bu zot sharif Ahsikat shahrida tug'ilgan. Ahsikat 20 asrgacha Farg'ona viloyatining markazi bo'lib bu shaharda ilmu irfon, san'atu ma'naviyat rivoj topgan. Ipak yo'lining chorraxasida joylashgan bu shahar keyin xarobaga aylandi. Ayni shu kunlarda qadimiy Axsikat namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani hududidadir.

Professor Homidjon Homidovning yozishicha, Hazrat Poyanda Ohund Axsikarti Toshkent, Samarqand, Buxoro madrasalarida ta'lim oldilar. So'ng Balxga borib, Shayx So'fiy Xirad Axsikartiyadan irshot xati oladilar. Muhammad Mutribiy 'Tazkiratush Shuaro' kitoblarida Hazrat Axsikatiyadan she'riy me'ros qolganini bayon etgan.

Olim Komilxon Kattayevning yozishicha, Hazrat Poyayanda Muhammad Shoh Aysi tariqat sabog'ini Mahmud A'zam nomi bilan mashhur bo'lgani Hazrat Sayid Ahmad Jaloliddin Kosoniydan olganlar.

Poyanda Muhammad to'liq ismlari Muhammad bin Mir Darvesh Muhammad bin Mir Obid al Husayn al Axsikatiy al Abosiydir.

Mavlono Poyanda Muhammad Shoh Aysi Hazrat Maxdumi A'zamning ko'rsatmalariga muvofiq Buxoroga keladilar va shu yerda naqshbandiya tariqatidan saboq berib turg'un bo'ladilar.

Buxoro Amirlari, ulamoyu kosiblari Hazrat Shoh Axsining muridlari bo'lib, bu zoti sharif maslahatlariga amal etgan.

'Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristida'da quyidagi muhim ma'lumotlar bor: "Boqiy Muhammad shikoriy Fanoiy al Buxoriy hazratlari Poyanda Muhammad shogirdlari bo'lib, bir necha asarlar ijod qilgan. Boqiy Muhammad Shikoriy "Maqomatul orifin" (Ma'rifat egalarining maqomati") nomli asarning muallifi hisoblanadi". Asarda muallifning ustoz va piri shayx poyanda Muhammad ibn Mir Darvesh Muhammad ibn Miri Obid al Husayn al Axsikatiy al Abosiyning targimai holi yoritilgan. Bundan tashqari, unda fors-tojik adabiyotida uchraydigan tasavvufga oid majoziy iboralar lug'ati va izohi berilgan. Asar 1607-yilda yozilgan.

Boqi Muhammad shikoriy al Buxoriyning "Jazabotul oshiqin" nomli kitoblari ham bor.

Hazrat Shoh Aysi Buxorning Fayzobod mavzesida ulkan xonaqoh qurdirganlar. Xonaqoh milodiy 1596-yil qad ko'targan. Shuningdek, Buxoro shahri Samarqand ko'chasida Hazrat poyanda Muhammad katta jonu masjidi, ikki qavatli maktab, gumbazli taxoratxona ham qurdirgan edilar. Bu obidaning nomi Shoh Aysi jomesidir.

Sharafiddin Roqimiyning "Tarixi tomm" kitobida yozilganki, Hazrat Maxdumi A'zamning o'g'illari, piri murshid Xoja Abdulxoliq va Mavlono Poyanda Muhahammad Shoh Aysi bir yilda vafot qiladilar. Boqi Darzi Buxoriy ularning har ikkisi vafoti tarixini bildiruvchi qit'ani yozgan:

Du murshid az jahon raftand, burdand

Qaroru sabr az dilho sarosar.

Bar vay sinaho az bahri tarix.

Raqam kardand:”Oh dili muqarrar”.

Mazmuni: Jahondan ikki murshid o’tdilaru

Sabru qaror dildan ketdi.

Ularning vafot tarixi “Oh dili muqarrar” bo’ldi.

“Oh dili muqarrar ”dan hijriy 1010 yil hosil bo’ladi. Xudi shu kitobda Hazratning qabr joylari haqida ham ma’lumot keltirilgandir:

Dar Buxoro ast on rofe maqom

Xoki o’ majai xosu om

Har bahoriston makon obod

On zaminro hast nom Fayzobod

Mazmuni: Bu oily maqom joy Buxorodir.U yerda xosu avomning ziyoratgohi hisoblanadi.

Juda ham obod bo’lgan bu joyning nomi Fayzoboddir.

“Tuhfat az zoirin” kitobida yozilgaki, Hazrat Poyanda Muhammad Shox Axi qabirlari Fayzobod mavzesidir.Buxoro shahri ichidagi Shox Axi masjidi atrofidagi guzarning nomi ham Shox Axi deb ataladi.Fayzobod mavzesidagi Hazrat qurdigan xonaqoh Shox Axi xonaqohi deb atalgalmoqda.Mazkur xonaqohning kunchiqar tomonida mozoriston bor. Ushbu mozorda Hazrat dafn qilinganlar.”Tuhfat az zoirin ” da Hazrat Shox Axsining murid, shogird, ashobalari haqida ham ma’lumot bor.Ular quyidagi avliyo, allomalardir: Hazrat Mavlono Masti, Mavlono Oxund Kamoliddin Vag’anzaviy, Mavlono Muhammad Qosim al Buxoriy Darvozai Obi, Mavlono Shoh Muhammad Sarrof va boshqalar.

Shuni ham takidlash joizki, sobiq ittifoq zamonida Axsi jome'sida (bu shahardagi Samarqand ko'chasidir) poyafzal ombori, xonaqohda esa jamoa xo'jaligi ombori joylashgan edi. Ayni shu kunlarda jome' ham xonaqoh ham namozxonlar ixtiyoriga berilgandir. Fayzoboddagi Hazrat Shox Axsi ziyoratgohlari obod etilgan.

Ayniqsa berilayitgan yangi nomlarning milliy istiqlol g'oyasiga mos bo'lishi, doimiy diqqat-e'tiborda bo'ldi. Shahar tuman va qishloqlarimizning go'zal binolari peshtoqasini O'zbekiston, Mustaqillik, Istiqlol, Istiqbol, Umid, Shodiyona Hayot obod nomlari bezab turibdi.

### **. Fayzobod Xonakosining arxitektura obidasi va atrof muhitning tasnifi.**

Mamlakatimizda xalqimizga xos yuksak ma'naviy qadriyatlar va eng yaxshi an'analar ruhida kamol topayotgan, Vatanimiz tarixi, uning kelajagi va ertangi kuniga mas'ullik tuyg'usini teran anglaydigan, davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi doirasida hayotimizning barcha jabhalarini isloh qilish va yangilash bo'yicha tobora jadallashib borayotgan ishlarga o'z hissasini qo'shish maqsadida ishda katta yutuqlarga erishishga intilayotgan barcha yigit-qizlar har tomonlama qo'llab quvvatlanmoqda.

Uch ming yildan ziyod tarixga ega Buxoro jahon tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan shaharlardan biri. Qadimdan ilmu ma'rifat, madaniyat maskani bo'lgan bu go'sha ta'rifi butun olamga yoyilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Yurtboshimiz rahnamoligida milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, madaniy merosni, ayniqsa tarixiy-memoriy obidalarni asrash, ularni kelgusi nasllarga yetkazish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Masjidi Kalon, Chorbakr, Ark qal'asi kabi qator asori atiqalar ta'mirlanib, asl qiyofasiga keltirildi. Bevosita Prezident I.Karimov tashabbuslari bilan tasavvuf namoyandalari, Naqshbandiya tariqati asoschilari Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari obod etildi. Xuddi shunday Buxoroning ko'hnaligidan darak



berguvchi me'moriy yodgorliklari –Mag`oki Attor, Ismoil Somoniy, Chorbakr, Minorai Kalon, Ark qal'asi, Labihovuz, Chorminor, Bahouddin Naqshband maqbarasi boshqa qator obidalari tiklandi.

Sho'rolar davrida Xoja Ismatulloh Buxoriyning nomi unutilgan, ziyoratgohlari esa xarobaga aylangan edi. Istiqlol sharofati bilan o'z yurtining shaydosi bo'lgan shoirning ziyoratgohlari obod bo'ldi va u mavze shoirning nomini oldi. Buxoro shahri ichidagi Shox Axxi masjidida atrofida gular nomi ham Shox Axxi deb ataladi. Bu labi hovuzdan Samarqand darvozasiga qarab boraverishida joylashgan.



**1-rasm. Shox Axxi masjidining kirish eshigi**

Hazrat Poyanda Muhammad Shox Axxi naqshbandiya tariqatining rivojiga muhim hissa qo'shgan shayx, o'z zamonasining murshidi sohib karomad avliyo, ulug' tarbiyachi bo'lganlar.

Bu zot sharif Axsikat shahrida tug'ilgan. Ahsikat 20 asrgacha Farg'ona viloyatining markazi bo'lib bu shaharda ilmu irfon, san'atu ma'naviyat rivoj topgan. Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan bu shahar keyin xarobaga aylandi. Ayni shu kunlarda qadimiy Axsikat Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani hududidadir.

Professor Homidjon Homidovning yozishicha, Hazrat Poyanda Ohund Axsikati Toshkent, Samarqand, Buxoro madrasalarida ta'lim oldilar. So'ng Balxga borib, Shayx So'fiy Xirad Axsikartiyadan irshot xati oladilar. Muhammad Mutribiy 'Tazkiratush Shuaro' kitoblarida Hazrat Axsikatiyadan she'riy me'ros qolganini bayon etgan.

Olim Komilxon Kattayevning yozishicha, Hazrat Poyayanda Muhammad Shoh Axi tariqat sabog'ini Mahmud A'zam nomi bilan mashhur bo'lgani Hazrat Sayid Ahmad Jaloliddin Kosoniydan olganlar.

Poyanda Muhammad to'liq ismlari Muhammad bin Mir Darvesh Muhammad bin Mir Obid al Husayn al Axsikatiy al Abosiydir.

Mavlono Poyanda Muhammad Shoh Axi Hazrat Maxdumi A'zamning ko'rsatmalariga muvofiq Buxoroga keladilar va shu yerda naqshbandiya tariqatidan saboq berib turg'un bo'ladilar.

Buxoro Amirlari, ulamoyu kosiblari Hazrat Shoh Axsining muridlari bo'lib, bu zoti sharif maslahatlariga amal etgan.

Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihrisida'da quyidagi muhim ma'lumotlar bor: "Boqiy Muhammad shikoriy Fanoiy al Buxoriy hazratlari Poyanda Muhammad shogirdlari bo'lib, bir necha asarlar ijod qilgan. Boqiy Muhammad Shikoriy "Maqomatul orifin" (Ma'rifat egalarining maqomati") nomli asarning muallifi hisoblanadi". Asarda muallifning ustoz va piri shayx poyanda Muhammad ibn Mir Darvesh Muhammad ibn Miri Obid al Husayn al Axsikatiy al Abosiyning tarjimai holi yoritilgan. Bundan tashqari, unda fors-tojik adabiyotida

uchraydigan tasavvufga oid majoziy iboralar lug'ati va izohi berilgan. Asar 1607-yilda yozilgan.

Boqi Muhammad shikoriy al Buxoriyning "Jazabotul oshiqin" nomli kitoblari ham bor.



**2-rasm. Muhammad Shoh Ahsi jome masjidning ayvoni**

Hazrat Shox Ahsi Buxorning Fayzobod mavzesida ulkan xonaqoh qurdirganlar. Xonaqoh milodiy 1596-yil qad ko'targan. Shuningdek, Buxoro shahri Samarqand ko'chasida Hazrat poyanda Muhammad katta jonu masjidi, ikki qavatli maktab, gumbazli tahoraxona ham qurdirgan edilar. Bu obidaning nomi Shoh Ahsi jomesidir. Mamlakatimizda xalqimizga xos yuksak ma'naviy qadriyatlar va eng yaxshi an'analar ruhida kamol topayotgan, Vatanimiz tarixi, uning kelajagi va ertangi kuniga mas'ullik tuyg'usini teran anglaydigan, davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiiilgan. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi doirasida hayotimizning barcha jabhalarini isloh qilish va yangilash bo'yicha tobora

jadallashib borayotgan ishlarga o'z hissasini qo'shish maqsadida ishda katta yutuqlarga erishishga intilayotgan barcha yigit-qizlar har tomonlama qo'llab quvvatlanmoqda.

Sharafiddin Roqimiyning "Tarixi tomm" kitobida yozilganki, Hazrat Maxdumi A'zamning o'g'illari, piri murshid Xoja Abdulxoliq va Mavlono Poyanda Muhammad Shox Aysi bir yilda vafot qiladilar. Boqi Darzi Buxoriy ularning har ikkisi vafoti tarixini bildiruvchi qit'ani yozgan:

Du murshid az jahon raftand, burdand

Qaroru sabr az dilho sarosar.

Bar vay sinaho az bahri tarix.

Raqam kardand: "Oh dili muqarrar".

Mazmuni: Jahondan ikki murshid o'tdilaru

Sabru qaror dildan ketdi.

Ularning vafot tarixi "Oh dili muqarrar" bo'ldi.

"Oh dili muqarrar" dan hijriy 1010 yil hosil bo'ladi. Xudi shu kitobda Hazratning qabr joylari haqida ham ma'lumot keltirilgandir:

Dar Buxoro ast on rofe maqom

Xoki o' majai xosu om

Har bahoriston makon obod

On zaminro hast nom Fayzobod

Mazmuni: Bu oily maqom joy Buxorodir. U yerda xosu avomning ziyoratgohi hisoblanadi.

Juda ham obod bo'lgan bu joyning nomi Fayzoboddir.

“Tuhfat az zoirin” kitobida yozilgaki, Hazrat Poyanda Muhammad Shox Aysi qabirlari Fayzobod mavzesidir. Buxoro shahri ichidagi Shox Aysi masjidi atrofidagi guzarining nomi ham Shox Aysi deb ataladi. Fayzobod mavzesidagi Hazrat qurdigan xonaqoh Shox Aysi xonaqohi deb atalgalmogda. Mazkur xonaqohning kunchiqar tomonida mozoriston bor. Ushbu mozorda Hazrat dafn qilinganlar.”Tuhfat az zoirin ” da Hazrat Shox Aysining murid, shogird, ashobalari haqida ham ma’lumot bor. Ular quyidagi avliyo, allomalardir: Hazrat Mavlono Masti, Mavlono Oxund Kamoliddin Vag’anzaviy, Mavlono Muhammad Qosim al Buxoriy Darvozai Obi, Mavlono Shoh Muhammad Sarrof va boshqalar.

Shuni ham takidlash joizki, sobiq ittifoq zamonida Aysi jome’sida (bu shahardagi Samarqand ko’chasidir) poyafzal ombori, xonaqohda esa jamoa xo’jaligi ombori joylashgan edi. Ayni shu kunlarda jome’ ham xonaqoh ham namozxonlar ixtiyoriga berilgandir. Fayzoboddagi Hazrat Shox Aysi ziyoratgohlari obod etilgan.

Fayzobod Xonaqosining arxitektura obidasi va atrof muhitning tasnifi.

Bulutsiz chang osmonda shaharning eski qal’asi xarobalari aniq ko’rinadi. Janubiy voha-tabiati va iqlim sharoiti yaxshi bo’lganligi tufayli o’zbekiston aholisining asosiy qismi shu vohada yashaydi va mehnat qiladi. Bu vohaga Toshkent, Farg’ona, Andijan, Namangan, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxandaryo, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlari kiradi. Iqlimi ancha mo’tadil, tuprog’i o’simliklar uchun qulay bo’lganligi tufayli aholining asosiy qismi shu erlarda yashashadi. Kupchilik aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug’ullanishadi. Bu viloyatlarning hammasi janubiy vohada joylashganiga qaramay ularning landshaft va iqlim sharoiti bir-biridan farq qiladi. Bu esa turar joy binolarining arxitekturaviy echimiga ta’sir ko’rsatadi. Masalan Buxoro, Navoiy viloyatlarida sovuq davrini ko’proq bo’lishi, noxush shamollarni tez-tez bo’lishi hamda changli to’zonlarni bo’lib turishi turar-joy binolarini tashqi muhitdan yopiq holda loyihalashni talab qiladi.

XVI asrda Buxoro O'rta Osiyo ustalariga mos unikal arxitektura binolari qad ko'tardi va bu maxsus arxitektura maktabi yaratilishiga asos, dalil edi. XVI –XVII asrlarda arxitektura odatdagidek novatorlik, ijodiy cheklanganlikka va yangi narsa yaratish bilan kurash olib boradi. Bu davrdan hammaning me'morchiligi yangi fikrlar bilan hammani lol, hahron qoldirdi, lekin ko'proq avval ishlangan sxemalar, formalarga tayandi.

Qurilish texnikasiga yuksalish asosan gumbazlarni yopishda kuzatiladi. O'zaro kesishuvchi arkalar murakkab to'rli maxsus paruslarga keldi.

Aynan shu vaqtda 1398 – 1399 yillar Buxoroning shimol tarafi devorida Fayzobod Xonaqosi qad ko'tardi.

Xonaqo konstruksiyasining hamma tomonlari bir xil qabul qilinganligi noa'na'naviy ko'rinashni belgilaydi va XVI asr obidalaridan ajratib turadi.

Binoning qurilishi asosan shimoldan asosiy machit xonasi va u bosh kirish joyiga tutashadi. Shuningdek janubdan va shimoldan gumbazli galereyaning kirish portaliga qaratilgan. Mavjud hujralar janubga qaratilgan. Portal tomonidan sharq qismi 2 qavatli bo'lib, terrasalar ikkinchi qavatda esa har ikkala tomoni hujralardan iborat.



### **3-rasm Fayzobod Xonaqosining interyeri**

Bir necha yil davomida bini ta`mirlanmaganligi tufayli vayrona holatiga kelgan, ayniqsa 1940-50- yillarida.



### **4- rasm. Fayzobod Xonaqosining tashqi ko`rinishi**

Bosh fasad va unga birikkan qanot boshqa fasadlardan farqli o`laroq terrakota geometrik rasm bilan yotqizilgan. Ular geometrik va yulduzcha shaklidagi formalardan tuzilgan. Bosh portal “P” shaklidagi ko`k, ochiq ko`k va oq belbog`li shliflagan terrakota hishtlaridan iborat.

Xonaqoning shimol tomoni ko`proq vayron bo`lgan, ikki qavatli hujralardan qariybhech narsa qolmagan. Bosh fasaddan faqat 7 metrlik tomon sirti qolgan.

Kolonnalar “qirma” usulida avavl ganchda shtukaturka qilinib, so'ngra geometrik naqsh o'yilgan.

Bosh fasadning janub va shimol tomoni ham shu tarzda ishlangan. Bosh fasadning tsokol qismi xuddi obidaning boshqa qismlari qatori oblitsovka qilingan.

Shimoliy fasad tomonlari ustahkamlangan va arkalardan tuzilgan. Gumbaz galereyasi ancha shikastlangan.

G`arb tomondagi fasad, bosh fasad va yon qarama – qarshi tomoniga kamtarin ishlov berilgan. Markazdan ikkinchi kirish qismiga, tomga boruvchi, zinapoya va arkadan iborat. Chekkalari bosh fasadga o'xshab arkali gumbaz galereyadan iborat.

Janub tomondagi devor ko'proq saqlangan.

Hozirgi vaqtda Fayzobod Xonaqosi ta'mirlangan va monumental tasvirlarning yuksak namunasi bo'lib xizmat qiladi.

## **II - bob**

### **§ 1. Mavlono Sharif tarixiy obidasi haqida.**

#### **TARIXIY MA`LUMOTLAR**

Arxitektura majmuasi XVII asrning mashhur so'fisi, teolog olimi – Mavlono Sharifning ta'limoti bilan bog'liq. Majmuaning asosiy inshooti – bu Mavlono Sharifning maqbarasi bo'lib, u XVII – XVIII asrlarda qurilgan. Bir vaqtning o'zida maqbara bilan tutashib ketuvchi hujralar qurilgan. XIX asrning oxirlarida g'arbiy tomondan aychonli kvartal (mahalla) masjidi qurilgan. XX asrning boshlarida darvozaxona qurilgan. U Abdulazizxon madrasasining janubi-sharqiy tomonidan bir necha o'n metr masofada zich aholi binolari orasida joylashgan.



Mavlono Sharif kvartal (mahalla)sining diqqatga sazovvor joylaridan biri bo'lib masjid-xonaqoh hisoblanib, uning qurilishi Mavlono Sharifga atalgan. Rivoyatlarga ko'ra, xonaqoh turgan joyda avallari Ko'kaldosh madrasasining vaqfi hisoblangan hammom joylashgan bo'lgan, va vaqf ta'sisчисining vasiyatiga ko'ra unda ushbu madrasada tahsil olgan talabalar bepul yuvinishlari kerak bo'lgan. Hammom xaroba holga kelgandan keyin Mavlono Sharif ataylab Kukaldosh madrasasi vaqflariga berish maqsadida Do'ngiyon qishlog'idagi yerlarni sotib oladi va uning evaziga hammomni oladi. O'z mulkiga aylangan ushbu yerlarni u yiqitib chiqadi va uning o'rniga xonaqoh qurdiradi. Hozirgi kungacha yarimxaroba holga kelib qolgan masjid binosi tekis kvadrat eski pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, uning usti tekis to'sinlar bilan qoplangan. Ma'lumotlarga qaraganda masjid XIX asrning oxirlarida amir Ahadxon davrida to'liq ta'mirdan chiqarilgan. U ham har kungi besh mahallik namozlarni ado qilish uchun (machiti panjvaqti), ham jum'a namozlarini bajarish uchun xizmat qilgan (machiti jumaxoni). Bir vaqtning o'zida u xonaqoh vazifasini ham bajargan, ya'ni u zikr qilish maskani bo'lgan: bu yerda jum'a kungi namozdan keyin baland tovushda zikrlar qilingan (xuddi jahr kabi). Bu shundan dalolat beradiki, Mavlono Sharif ham baland tovushli jahrlarni so'fiylik tariqatiga mansub bo'lgan. Bu yerda ramazon oyining oxirgi 10 kuni mobaynida shayx va mullalar o'n kunlik birlashish orqali toat-ibodat qilganlar (daxa meshishtan). Xonaqoh juda ommabop bo'lganligi tufayli u yerda ham oddiy xalq, ham hukmron qatlam kelib turgan, shuning uchun "o'n kunlik toat-ibodat"ga kelishni xohlovchilar soni ko'p bo'lgan. Bu vaqtda ham masjid, ham uning oldida joylashgan ayvon pardalar bilan yopilgan va bu orqali u yerda har 2-3 kishiga mo'ljallangan alohida xonachalar vujudga kelgan. Ularga "xudo yo'liga" xizmat qilishni xohlovchilar xizmat ko'rsatishgan: doimo samovarlar qaynab turgan, ko'p sonli choynaklarda choy damlangan va uzoq muddatli toat-ibodatdan toliqqan kishilarning charchog'i olingan. Har kecha osh damlangan bo'lib, bu uchun kerak bo'ladigan barcha mahsulotlar amir tomonidan berilgan, va ehtimol, boy kishilar ham bu borada saxiylik ko'rsatib turganlar.

Inshootlarning muallifi, quruvchilar va buyurtmachilar noma`lumligicha qolmoqda. Majmuaning vujudga kelishi to`g`risidagi ma`lumotlar Mir-Arab madrasasi o`qituvchisi so`zlaridan olingan.

Mavlono Sharif qabri – bu mahallaning asosiy muvaddas qadamjosi bo`lib, u masjid-xonaqoh bilan yonma-yon turuvchi maqbaraning ichida joylashgan.

Tashqaridan maqbaraning janubiy devori tomonida ikkinchi qabr mavjud bo`lib, u Mavlono Sharifning o`g`lining qabri hisoblangan. Buxoro tarixida Mavlono Sharif nomi bilan ma`lum bo`lgan ikki shaxs bor, va ehtimol, gap bir kishi haqida borishi ham mumkin. O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutining qo`lyozmalarida 1679 yilda vafot etgan “Mavlono Sharif al-Alava al-Buxoriy ... darveshlikning noma`lum nazariyachisi hamda baland tovushli zikr to`g`risidagi mehnatlar muallifi” ismi keltirilgan. V. L. Vyatkin Buxoro amiriga “1007 (1686) yilda Buxoro xonligi doirasida Xiva xoni Anushiga hujum qilish chog`ida” o`z maslahatlari bilan yordam berib turgan “Ko`kaldosh madrasasi professori, buxorolik qonunshunos Mavlono Sharif”, “qudratli va ilmi kishi” to`g`risida gapirib o`tgan.

Mavlono Sharif to`g`risidagi xalq rivoyatlari uning yuqori ma`naviyatli ekanligini tasdiqlaydi, uni Ko`kaldosh madrasasining oxuni va “Mullo Muxammad – Sharif oxun xonaqohi” foydasiga vaqf tasdig`ini rasmiylashtiruvchi 1779-1980 yillardagi vaqf yorlig`i sifatida tasvirlaydi. Unda ko`rsatilganki, u yer “Zargaron madrasasi orqasida” joylashgan.

Ushbu joyning aniqlanishi (lokalizastiya) gap aynan Mavlono Sharif mahallasi masjidi to`g`risida borayotganligiga gumon tug`dirmaydi, “darveshlik nazariyachisi” o`limining o`lgan yili bilan mos keluvchi vaqfning rasmiylashtirish sanasi esa, ushbu hujjatlarning barchasi bir shaxsga mansubligidan dalolat beradi. Uning tasviriniuning chizilgan suratidagi kiyimlari ham ma`lum darajada ifodalab, u rasm “muqaddas” kishining mozoridagi yodgorlik sifatida saqlangan hamda oddiyli bilan ajralib turgan va bu uning yirik ma`naviy oqsuyak emas, balki oddiy so`fiy ekanligidan dalolat beradi. Buxorodagi eng katta madrasa –

Ko'kaldosh madrasasi mudarrisi ham shunday bo'lgan. Bundan tashqari bu tasvir odat sifatida bo'lishi va holatni aks ettirmasligi ham mumkin.

#### QADIMIY YODGORLIKNING TAVSIFI.

Majmua Abdulazizxon madrasasining janubi-sharqiy tomonidan bir necha o'n metr masofada zich aholi binolari orasida joylashgan. Rejada majmua funkstional jihatdan turli vazifalarni bajaruvchi bir necha binolar atrofida joylashgan uncha katta bo'lmagan kvadrat ko'rinishida turibdi.

Majmuaning markaziy inshooti – Mavlono Sharif maqbarasi. Sharqiy tomondan unga 11 dona bir qavatli hujralar tutashib ketadi.


G'arbiy tomondan mahalla masjidi qurilgan. Shimoldan hovli gumbazli bino bilan yopilgan bo'lib uning janubiy devorining tashqi ko'rinishi qarama-qarshi tomonda turgan maqbaraning proporstiyasi va bo'linishini takrorlaydi. Majmua hovlisiga kirish kichik darvozaxona orqali amalga oshiriladi.

Majmua uncha katta bo'lmagan kvadrat shaklidagi hovlicha atrofida uyg'unlashgan turli mavsumlarga mo'ljallangan va turli vazifalarni bajaruvchi inshootlardan tashkil topgan.

Markaziy qurilma – rovoqli gumbazli maqbara bo'lib, u XVII – XVIII asrlarda qurilgan. Majmuaning sharqiy va qisman shimoliy tomonini 11 dona madrasa hujralari egallagan bo'lib, ular maqbara bilan bir paytda qurilgan. XIX asrda g'arbiy sohani bir tomonlama ayvon bilan birga mahalla masjidi egallab olgan, XX asrning boshlarida esa shimoli-g'arbiy burchakdagi uncha katta bo'lmagan gumbazli darvozaxona hovlining ichki muhitini yopib qo'ygan.



Mavlono Sharif maqbarasi – bir kamerali rovoqli-gumbazli inshoot bo’lib, uning ichkarisi keng o’qli arkali va g’arbiy qismi chuqurlashtirilgan va shu orqali xochsimon shakl kasb etadigan taxmon (tokcha) lar hisobiga kengaytirilgan. Maqbaraning g’arbiy qismida kichik kvadrat inshoot qurilgan bo’lib, unga fasad orqali kiriladi. Uning kompozitsiyasi an’anaviy: ya’ni chetverik (o’lchov birligi) devor – sakkiz burchakli arkali belbog’ – sferokonik gumbaz.



Bino pishiq (obi) g'ishtdan qurilgan. O'lchamlari 26-27 \* 26-27 \* 5.5-6 sm bo'lib loyli aralashmadan yasalgan va ularning orasi ganch bilan to'ldirilgan.

Maqbara binosining ichidagi (interer) dekorativ ishlar gumbazli konstruktiviyalar – sakkizburchakli belbog’dagi qalqonsimon yelkanlarga yuklatilgan, shuningdek ganchli stalaktitlar orqali bezaklar kuchaytirilgan. Arkasimon tokchalarning tugallanishi va belbog’ gumbaziga o’tish. Derazalarda ganchli panjara va kirish joylarida kesilgan yog’och eshiklar. Devorlar ichkaridan ganchli suvoq bilan qoplangan. Devorlarning tashqa fasad qoplamasi silliqlangan g’ishtdan terilgan. Maqbara poli tagida to’rt yirik qabrdan iborat sag’ana mavjud bo’lib, ular pishiq g’ishtdan ganchli eritma yordamida qurilgan.

Majmuaning sharqiy chegarasi tomoni bo’ylab tortilgan hujralar tor gumbazli yo’lak orqali maqbaradan ajratilgan bo’lib, ularning to’rttasida chiqish joyi bor, qolganlaridan esa chuqur rovoqli kirish arkalari orqali hovliga o’tiladi. Rejada barcha binolar to’g’ri to’rtburchakdan iborab, g’o’lalar orqali tashqariga bo’rtib chiqqan, o’qsimon gumbazga ega, shimoliy kamera bundan mustasno bo’lib, u rejada chuqur o’qli rovoqlar va gumbazli qomlamlari bo’lgan kvadrat shakliga ega. Gumbazli hujraning oldidagi hovlining shimoliy devori ishlab chiqilgan, va u maqbara bilan bir o’qda joylashgan, uning proporstiyasi va bo’linmasida ishlab chiqilgan.

Ushbu masjid – Buxoro shahridagi eng katta mahalla masjidlaridan biri hisoblanib, u o’zi bilan mahalla masjidlarining eng keng tarqalgan turkumini ifodalaydi, ya`ni xonaqohlar to’g’ri burchakli, bir tomonli ayvon va tekis yog’och to’sinlardan iborat tom.

8 ta, ayvon ustida esa 2 ta.Ustun oddiy lolasimon ( madoxil ) shaklda rastki kismi islmiy nakshlar bilan shar shaklida ishlangan..Bu uslub Buxoro o’ymakorlig maktabiga xos uslubdir.



6.5 sm). Namda ganch o'ymakorligining kirma uslibdan foydanilgan, pastki izora(panel) qismida davri poyalar shakli tushirilgan. Masjidni sharafa ( yukori) q

ismida turli ramzli shakldagi bezaklar berilgan. Arab alifbosida oyat kirma (pardoz) uslubdayozilgan.

O'lchamlari: umumiy majmua – 35 \* 35 m

Ichki maqbara – 5.9 \* 5.9 m.

Masjid – 14 \* 21 m.

## **§ 2. Buxorodagi masjidi jome`**

### **Buxorodagi masjidi jome**

Alisher Navoiy 1498 yil may oyida «birinchi navbatda maqsuraning qulab tushgan gumbaz va peshtoqini tiklashga amr qildi...» Uning ikki tomoniga maqsura sufa va oliy darajali ayvon qurdirdi. SHu jihatdan buyuk toq mustahkamlandi». Masjidi jome`ni kuzatar ekanmiz (bino hozir xam mavjud), XV asr oxirida olib borilgan ta`mir izlarini aniq ko`rish mumkin. Bu o`rinda bizni «maqsura sufa» va «ayvon» terminlari qiziqtiradi. Binoga nisbatan maqsura deb gumbazli asosiy xona aytilgan. Maqsuraning gumbazi va old tomonidagi peshtoqi qayta tiklangan. Ikki yoniga esa, «maqsura sufa» qurilgan. Peshtoqli oldi ochiq xonalar qurilganini masjidning hozirgi ko`rinishidan ham bilish mumkin.

Temuriylar davri tarixchisi Abdurazzoq Samarqandiy Hirot shahridagi 1425 yilda qurila boshlangan Xoja Abdulloh Ansoriy mozori imoratini quyidagicha tasvirlaydi:

«SHarq tomondagi uning peshtoqida buzrugvorning mozoriga qaratib g`oyat baland va ka-moli latofat bilan oliy bir ayvonning sufasi qurilgan va u sufaning ikki tarafida va ular tepasida yana sufalar va ayvonga yaqin balandlikda past-baland xonalar, uning o`rtasida esa oliy bir sufa; shimol tomonda ham sufalar va xonalar; shimol tomonning o`rtasida ham katta bir sufa; shuningdek janub tomonda ham xonalar bo`lib, ularning o`rtasida bir oliy sufa, ...mag`rib tomonda esa ...mozorga qaragan bir oliy sufa, uning o`rtasida o`tar yo`l, dahlizning shimolu janubdan iborat ikki tomonida ikkita jamoatxona bag`oyat go`zal tarzda tarbiyaga keltirilgan... Tashqarisida, mag`rib tarafda, baland bir kursi o`rnatilgan va ...ayvon



qad ko'targan». Mazkur tasvir ko'z oldimizga, bizga ma'lum Samarqanddagi SHerdor madrasa kabi imoratni keltiradi. Demak, «oliy sufa» deb hovli o'rtasidagi oldi peshtoqli usti berk joyga aytilgan. Xuddi shu kabi uning yon qatoridagi hujralar oldidagi ravoqli joy ham sufa deb nomlangan.

HazratXizr masjidi. Qadimgi Samarqand—Afrosiyob chekkasida bir vaqtlar Hazrat Xizr nomi bilan mashhur bo'lgan masjid — obida qad ko'tarib turadi. Obida chor-rahadan sal narida bo'lib, fasadi Toshkent ko'chasiga qaragan.

Rivoyatlarga ko'ra, Samarqanddagi birinchi masjid shu erga solingan. XVIII asrda feodallarning o'zaro urushlari natijasida Samarqand inqirozga yuz tutib, shahardan putur ketgan, imoratlar, shu jumladan, bu masjid ham uzoq vaqt qarovsiz qolib, qattiq shikastlangan ekan. Uni boshdan-oyoq qaytadan qurish zarur bo'lib qolgan.

Masjidning hozirgi binosi XIX asrning o'rtalaridagi qadimgi masjidning poydevoriga tushgan. Ksyinchalik bu bino ham bir necha bor remont qilinib, har gal uncha-muncha o'zgartish kiritilgan.

Masjid sufasimon tabiiy asosga qurilgan. Ancha tik zinadan ko'tarilib darvozaxonaga, so'ng to'g'ridagi eshikdan kichkina xonaga kiriladi. CHap tomondagi eshikdan peshayvonga o'tish mumkin. Peshayvondan tevarak-atrofga razm solinsa, ufq bilan qo'shilib ketgan shahar mapzarasi ko'rinadi. Ko'z oldingizda ulug`vor Bibixonim masjidining bahaybat xarobalari namoyon bo'ladi. Nariroqda muhtasham Registon madrasalari savlat to'kib turadi, sharqda esa tillarda doston bo'lgan SHohizindaning lojuvard gumbazlari ko'zga tashlanadi.

Imoratning butun shimoli g`arb qismi xopaqohdan iborat. Peshayvondan xonaqohga uchta eshik ochilgan.

Peshayvonga tutash bostirma tagidan o'tib, shohnishin deb ataladigan xonaga kiriladi. Peshayvondan kiriladigan eshik g'isht terib urib qo'yilgan.

Peshayvon ancha hashamatli. Uning bezagida izorasi (paneli) ham, hoshiyali naqsh pannolari va hoshiyali turunj (medalon)lari ham, ikki qatorli sharafa (stalaktit karniz)lari ham o'ziga juda mos tushgan. Pannoning ko'k ganch zaminiga o'simlik tasviri o'yib ishlangan. Doira ganch turunjlarga misralar o'yib yozilgan. Araqi va shift to'sinlariga bo'yoq naqsh solingan. Vassalar tekis.

Araqiga o'simlik tasvirli ornament, birin-ketin solingan to'g'ri burchakli va to'garak turunjlari nafis gulband bilan ulanib ketgan. Har qaysi turunj o'rtasida ochilgan gul tasviri, to'sinlarning bo'yog'i gulband ornamentdan iborat.

Peshayvon fasadida beshta o'ymakor ustun ko'zga tashlanadi. Ustunlarning shakli bir xilda bo'lib, asosi kvadrat, tanasi g'ola, yuqori qismi borgan sari ingichkalashib, yuqoridagi boshaga taqalgan. Fasad ustunlari qatorining o'rta oralig'ida bir oz ko'tarilgan birlashtiruvchi kayvon bor. U xuddi peshayvonning kompozitsion o'qini bo'rttirib turgandek tuyuladi.

Xonaqoh kvadrat bo'lib, to'rdagi g'arbiy devorida mehrob, ikkala tomonida hujra bor. Xonaqoh izorasiga to'g'ri burchakli rasmlar solingan. Xususan, ravoqli qanos— paruslar ajoyib chiqqan.

Gumbaz ichki sirtining bezagi chala bo'lsa kerak, gumbaz uchidagi naqshlar tugallanmay qolgan.

Masjidning peshayvonli fasadi ancha baland poydevor ustiga tushgan va g'arb tomonda guldasta bilan tugallangan. Peshayvonning yuqori qismi g'isht dandana qilib terilgan. SHarq tomondagi darvozaxona peshtoqi masjidning tarkibiy qismidir. Darvozaxonaning ikkala tomoniga guldasta qilingan, peshtoq darvozasiga o'ymakor naqsh solingan. Bu qator sharq tomonda qad ko'tarib turgan minora bilan tugallanadi.

Tevarak-atrof reliefi, binoga yaqinlashgan sari obida butun mahobati bilan ko'zoldingizda to'liq iamoyon bo'lishiga yordam beradi. Bino kun bo'yi quyosh nurida rang-barang tovlanib turadi.

Imoratlar garchi asimmetrik joylashsa-da, biroq har biri alohida olinsa, ular simmetrik tushganligi ma`lum bo`ladi. Masalan, ayvonning markazi kayvon tufayli bo`rtib ko`rinadi, holbuki ustunlarning soni markazga nisbatan teng emas. Ayvonning o`zi xonaqohga va darvozaxonaga nisbatan asimmetrik tushgan. Peshtoq va darvozaxoka mi-norasining fasad chizig`i masjid ayvoniga nisbatan bir oz shimoli sharqqa og`gan.

SHunday erkin kompozitsiya tufayli kompleksga yaqinlashgan sari imoratlar rakkursda namoyon bo`ladi. SHohizinda, Abdi Darun kompleksi Samarqand va Uzbekistondagi ko`pgina uylar shu usulda qurilgan. Umuman, shahar qurish masalasi muvaffaqiyatli hal qilingan. Mehrobning qibla tomonda bo`lishi shartligi masjidning muayyan tartibda joylanishini ta`minlagan. Biroq me`mor fasadni Toshkent ko`chasi yo`nalishiga parallel kilgan, holbuki, bu ko`cha kunbotarga rosa emas edi. Masjidga ikkita yo`l bor. Birinchisi, to`ppa-to`g`ri darvozaga olib kiradigan ancha tik zina, ikkinchisi, g`arbdan sharq tomonga poydevor yonidagi pandus bo`ylab borish. Ikkala yo`l ham mos tushgan.

Binoning badiiy-dekorativ asosi binokorlik konstruksiyalari talablariga to`la javob beradi. Masalan, shaklli turunjlar to`sinlarning davomidek birlashib ketgan. Peshtoq va minoradagi qirma usulidagi mayda g`ishtlar bahaybat, ulug`vor manzara hosil qiladi.

Darvozaxona gumbazidagi nafis chizilgan o`simlik nusxa bezaklar va yon darchalardan tushgan yorug`lik tufayli gumbaz vazni ancha ixcham tuyuladi. Bu kun yorug`i tushmaydigan g`ira-shira xonaqohga nisbatan xususan seziladi. Ustaning nozik didi o`ymakor eshikda o`z ifodasini topgan.

Ayvon naqshining g`oyat nafisligiva rang-barangligi kishida zavq uyg`otadi. Masjidning arxitekturasida ganch-suvoq va naqsh uchun quyma detallardan mohirlik bilan foydalanilgan.

Qirma naqsh ham o`ziga xos ravishda qo`llanilgan. Darvozaxona fasadi va sharqiy minoradagi qirma quyidagicha bajarilgan hali qotmagan yangi suvoqqa

g`isht nusxa solingan va rangdor ganch berib naqshlangan. Ichki izoralar ham qirma gireh nusxada bajarilgan, o`ymakor chiziq'larga faqat lojuvard ganch berilgan. Darvozaxona gumbazining ichki yuzasidan pardozi berilganda, o`simlik nusxa naqsh zaminning rangli qatlami ochilgunicha, gulganch o`yib olingan.

Masjid tiklangan va remont qilingan vaqtlari yozilgan ma`lumotlar binoning turli erida uchraydi. Masvlan, xonaqoh mehrobi tepasiga 1274 hijriy yilda (1854) ilk remont qilinganligi to`g`risida yozilgan. Bu masjidning qayta qurilgan vaqtini ko`rsatuvchi yozuv bo`lsa ham ajab emas. Undan quyiroqda 1302 hijriy yil (1884) bitilgan. Bu xonaqoh bezak naqshlari ishlangan vaqtini ko`rsatuvchi sana bo`lishi mumkin.

1899 yilda peshayvon qayta qurilgan. SHarq tomondan kiriladigan darvozaxona ham o`sha yili qurilgan bo`lsa kerak. Darvoza yuzasiga yozilgan sana—1338 (1919) darvozaxonaning qayta tiklangan vaqtini ko`rsatadi. Ushanda janubi-sharqiy peshtoq va sharq tomondagi minora ham qurilgan. Peshtoq rahli gumbazga ega. Minora eshigi tepasida usta Abduqodir ibn Boqi Samarqandiy degan yozuv bor. Ayvon bilan darvozaxona va minoraning arxitektura jihatdan ana shu tarzda joylanishi, imoratning bosh me`mori usta Abduqodir Boqiev (1860—1933) rejasidir. Samarqandlik mashhur binokor usta SHamsiddin ham shuni tasdiqlaydi. Uning aytishicha, yog`och o`ymakorlik ishlari usta Fathulla va bezak naqshi ustasi Mahmud Boqiev rahbarligida bajarilgan.

Hazrat Xizr masjidi XIX asr oxiri XX asr boshlarida usta Abduqodir boshchiligida ishlagan samarqandlik ustalar ijodining ajoyib namunasi.

Hazrat Xizr masjidi xalq arxitekturasining yodgorligi sifatida davlat muhofazasiga olingan. U 1967—69 yillarda ta`mir qilindi. Samarqand ustalari katta mahorat bilan minora va darvozaxonadagi qirmanini ta`mir etishdi. Rang-barang naqshin bezaklarni mustahkamlash va qayta tiklash sohasida juda nozik ishlar bajarilyapti. Masjid atrofi obodonlashtirilgan.

Urta Osiyo me`morchiligi taraqqiyotida madrasa, xonaqoh, masjid kabi jamoat binolariining alohida o`rni va ahamiyati bor. Ana shu imoratlar tug`ilishi, shakli, bezaklarida o`tmishdagi monumental me`morchiligimiz erishgan eng yuksak san`at namunalarini ko`ramiz

## **SAYFUDDIN BAHORZIY MAQBARASI**

SHaharning sharqiy qismida, vokzalga yaqin joyda ikki mahbara: Sayfuddin Baxorziy va Buyon Qulixon maqbaralari joylashgan.

Bu yodgorlik ikki binodan, ya`ni ziyoratxona va go`rxonadan iborat. Binoning sharqiy tomoni kengroq qurilgan bo`lib, katta peshtoq; maqbaraga tarqaladi. Ikki tomonda ikkita kalta mezana (guldasta) bulib, ularnng ichida tomga chiqadigan zinalar bor.

Ilgari ikkinchi xonada badiiy o`ymakorlik va sirli bezakning noyob namunasi bo`lgan yogoch sag`ana bo`lgan (XIV asr).

Maqbaraning ichiga baland minoralar gumbazidagi darchalardan yorug` tushib turadi.

Binoning katta yorilgan joylari bo`lib, hozirda u va bino gumbazi temir sinch bilan mustahkam quyilgan. XIV asrga oid arxitektura yodgorligi bo`lgan Buyon Qulixon maqbarasi Sayfuddin Bahorziy maqbarasi bilan yonma-yon joylashgan. Maqbara 1358 yilda Samarqandda o`ldirilgan chingiziylerden bo`lgan mo`g`ul xoni Buyon Qulixon qabri ustida qurilgan. Maqbara katta va kichik xonaga bo`lingan. Kichik xonada sirlangan guldor sagana bo`lgan, katta xona esa pastak gumbaz bilan xhonlangan. Maqbaraning to`rt tomonida naqshinkor ustunlar bor. Devor ichidan qorongi va tor yulak o`tadi. Maqbaraning ichki va tanqi tomoni rang- barang sir bilan bezatilgan. Bu erda zangori, ko`k, binafsha rang va oq bo`yoqlargina ishlatilgan. Sirlar toza va tiniq maqbaraning bezaklari geometrik figuralar, o`simlik novdalari, naqshinkor qilib yozilgan so`zlar va boshqalardan

iborat. Usha zamonda peshtoq xam qurilgan, ammo u binodan aloxida bo'lgan. Matsbara peshtoqi ham koshin bilan yaxshi bezatilgan. Ularning rang- barang bezaklari tahsinga sazovor darajada jozibali.

**Nomozgoh masjidi** —Buxorodan janub tomonda joylashgan. Bu masjid hayit kunlari shahar masjidlari nomoz o'quvchilarni sig'dira olmaganligidan o'sha vaqtda shahar tashqarisida qurilgan. Mazkur masjid ham an'anaviy uslubda qurilgan bo'lib, unda mehrob devoriga katta peshayvon solingan va sal nariga supacha qilingan. Supachada sufi ayvon tashqarisida saf tortib namoz o'qiyotganlarga eshitarli qilib imomning o'qiganlarini baland ovozi bilan qaytarib turgan. XIV asrga kelib mehrob nozik uyma gulli sopol g'ishtlar va mayda g'isht parchalari bilan bezatilgan. Bulardan tashqari devorning yuqori qismida zangori, ko'k va oq sir bilan arabcha xat yozilgan. Gorizontal koshinlar ham ishlangan. XVI asrga kelib, Nomozgohning peshayvon galereya shaklidagi binosiga nafis qoplama bezakli peshtoq qurilgan, g'arb tomondan binoning monumental qismi mehrobli qadimiy devorga taqalgan.

## **Xulosa.**

Mustaqlikka erishganmizdan keyin xalqimizning o'z yurti tili madaniyati qadiriylarni tarixini bilishga o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol odamzod borki avlod-ajdodini kimligini nasil nasabini o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq shahar xullaski, vatanining tarixini bilishni istaydi. = Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud ya'ni bizning vatanimiz nafaqat sharq balki umumjahon sivilizatsiya beshiklaridan biri bo'lgani butunjahon tan olmoqda . Bu qadimiy va tabarruk tuprog'idan buyuk allomalar, fozilu-fuzallolar, olimu - ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakab suvinshotlari, memoriy inshotlar shu kungacha ko'rku fayzini, mahobatini yo'qotmagan asori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmanchilik madaniyati me'morchilik va shaharsozlik sa'nati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. –Beshavqat sinovlardan omon qolgan tosh yozuvlar bitiklardan tortib bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozmalarda mujassmlashgan tarix adabiyot, san'at xususan me'morchilika oid asarlarimizga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi shuning uchun ham bu borada jahoning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan belasha olishimiz mumkin. Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatniuning tarixi va o'ziga xos urf-odat va an'analari hayotiy qadiriylardan ayri tasavur etib bo'lmaydi . Bu borada tabiiyki ma'naviy meros, madaniy boyliklar ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi.

Shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi qadimiy tarixi va boy madaniyatimizni ulug' ajdodlarimizning merosin chuqur o'zlashtirishi , bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligida ongli qarab , mustaqil fikirlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga dahildorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur.

Avvalombor shuni aytish joizki olis ota bobolarmizning aql zakovati, qalb ko'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlardan, qanchadan

qancha og'ri sinovlardan o'tib bizning davrimizgacha yetib kelganing o'zida kata ma'no mujassam. Buyuk merosimiz haqida tariflashda davom etsak o'ylaymanki bu borada uzoq gapirish mumkin. Bizning ozoldimizga qo'gan maqsadimiz esa bunday ulug' me'morchilik, amaliy san'at durdonalarni mufassal o'rganib uni kelajak avlodga yetkazishimiz darkor.

Asrlar bizdan ichkariga uzoqlashgan sari kelajak avlod uchun eski obidalarni asrab – avaylash va saqlash ko'proq ahamiyat kasb etadi.

“Milliy madaniyat uning eskisiga nisbatan munosabatini belgilaydi” degan ibora hozir ham dolzbar masaladir. Arxitektura obidalari bilan bir qatorda shahar hayot tarzini saqlash zarurdir.

Buxoro shahri O'zbekiston shaharlari orasida o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi, qadimiy va yirik shahardir. Arxitektura obidalari avval shahar chekkasida, hozirda shahar hududida joylashgan va takrorlanmasdir.

Azaldan ma'lumki, tarixiy joylar va obidalar shaharga o'zgacha shukuh, tarovat va chiroy bag'ishlaydi. Ular doim restavratorlarning diqqat markazidadir. Ularning tarixiy va tasviriy qiymati yuksak darajada saqlanishi Davlat organlari tomonidan va madaniy merosni saqlash, avaylash boshqarmasi tomonidan kifoyali himoyalangan. Atrof muhitga bo'lgan beshiborlik tufayli arxitektura yodgorliklari qachonlardir mashhur bo'lgan o'zligini yo'qotmoqda. Hozir shaharning eski qismi va u atrofida qo'riqlanadigan zonani aylantirish zarur.

Loyihalanuvchilar shahar zonasini rivojlantirishda turli xil qiyinchiliklarga duch kelmoqda – shahar qurilishining murakkab masalalari, eski obidalarni saqlash, eski va yangi qurilish va obidalarni uyg'unlashtirish, obida atrofida qaysi biri saqlanishi va qaysi biri vayron qilinish masalalarini echish zarurdir. Atrof muhit obidalari shu zonada loyihalash ishlarini olib borish imkoniyatini beradi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bocharov YU. P., Kudryavtsev O.K. Planirovochnaya struktura sovremennogo goroda. M., Stroyizdat, 1972 g.
2. Ikonnikov A.V. Formirovanie gorodskoy sredy. M., Stroyizdat, 1973 g.
3. Burov A.K. Ob arxitekture. M., Stroyizdat, 1960 g.
4. Le Korbyuze. Modulor M., Stroyizdat, 1976 g.
5. SHubin L.F. Arxitektura grajdanskix i promyshlennyyx zdaniy. Tom U. M., Stroyizdat, 1975 g.
6. Spravochnik proektirovshika. Arxitektura promyshlennyyx predpriyatiy, zdaniy i soorujeniy. M., Stroyizdat, 1975 g.
7. Abduqodirov A. "Obidalar jilvasi". -T., "O`zbekiston", 1972.
8. Azimov I. "O`zbekiston naqshu-nigoralari" -T., Adabiyot va san'at nashri. 1987yil.
9. Zohidov P.SH. "Me'mor san'ati", -T., Adabiyot va san'at nashr. 1978.
10. Zohidov P.SH. "Zeb ichra ziynat", -T., Adabiyot va san'at nashr. 1985.
11. Zohidov P.SH. "Me'mor olami" -T., omuslar bosh tahririyati, 1996.
12. Mirzaaxmedov M.X. Ergashev S. "Yog'och o`ymakorligi", -T., "O`qituvchi", 1995.
13. Narzulla Yo'ldoshev "Buxoro avliyolari" 109, 117 bet
14. M.S.Bulatov Geometricheskaya garmonizasiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv. Izdatelstvo "Nauka", M, - 1988.
15. M.Q.Ahmedov "O'rta Osiyo me'morchligi tarixi "Tosh.O'zbekistan 1995 yil 42, 60 betlar.